

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/04.06.2020.Fil.76.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

SATIVOLDIYEVA DILDORA SADRIDIN QIZI

**O‘ZBEK TILI TOPONIMIK TIZIMIDA KONVERSIYA VA
TRANSONIMIZATSIYA**

10.00.01 – O‘zbek tili

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Namangan – 2024

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Contents of dissertation abstract of doctor of Philosophy (PhD) on
Philological Sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

Sativoldiyeva Dildora Sadridin qizi

O'zbek tili toponimik tizimida konversiya va transonimizatsiya 3

Sativoldieva Dildora Sadridin kizi

Conversion and transonimisation in the toponimic system of the uzbek
language..... 27

Сативолдиева Дилдора Садридин кизи

Конверсия и трансонимизация в топонимической системе узбекского
языка 51

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

List of published works

Список опубликованных работ 56

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/04.06.2020.Fil.76.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

SATIVOLDIYEVA DILDORA SADRIDIN QIZI

**O‘ZBEK TILI TOPONIMIK TIZIMIDA KONVERSIYA VA
TRANSONIMIZATSIYA**

10.00.01 – O‘zbek tili

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Namangan – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.1.PhD/Fil11555 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Namangan davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasi (www.namdu.uz) hamda "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Uluqov Nosirjon Muhammadaliyevich
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Xojaliyev Ismoil Tojiboyevich
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Turobov Abdurayim Malikovich
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Qo'qon davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Namangan davlat universiteti huzuridagi PhD.03/04.06.2020.Fil.76.04 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil "28" 08 soat 9⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 160119, Namangan shahri, Boburshoh ko'chasi, 161-uy. Tel.: (+99869) 227-06-12; Tel.: (998-69) 228-85-01, Faks: 228-85-02. Web-sayt: www.namdu.uz, e-mail: info@namdu.uz faks: (+99869) 227-07-61; e-mail: info@namdu.uz.)

Dissertatsiya bilan Namangan davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1478-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 160107, Namangan shahri, Boburshoh ko'chasi, 161-uy, Tel: (+99869) 228-85-01).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "15" 08 kuni tarqatildi.
(2024-yil "15" 08 dagi 7 raqamli reestr bayonnomasi).



Z.Y.Sodikov,

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
filol.f.d. (DSc), professor

I.O'.Darvishov,

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD), dotsent

F.I.Karimova,

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, filol.f.d. (DSc),
dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligining onomastika sohasida tilshunoslikning boshqa fanlar bilan integratsiyasi yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Natijada geografiya, tarix, etnografiya, arxeologiya kabi fanlar uchun ham alohida mohiyatga ega bo‘lgan toponimik birliklar: mamlakat, viloyat, tuman, shahar, shaharcha, qishloq, daryo, soy, ariq, buloq kabi geografik obyektlarning maxsus atoqli nomlarini tarixiy va zamonaviy aspektlarda o‘rganish muhim amaliy ahamiyatga ega ekanligi yuqori miqyosga ko‘tarilmoqda. Shu jihatdan toponimik birliklar amaliy tilshunoslikning keng ko‘lamli tadqiqotlari, loyihalari orqali maxsus to‘planmoqda va ularning funksional, leksik-semantik, etimologik, nominatsion-motivatsion, derivatsion, struktural-tipologik, linvostlistik xususiyatlari turli lingvistik paradigma va aspektlar hamda fanlararo integratsiya tamoyillari asosida amaliy tomondan chuqur o‘rganilmoqda. Ayni davrda ham toponimik birliklarning amalda qo‘llanish holatlarining lisoniy tadqiq etilishi o‘zining muhim ahamiyatiga, dolzarbligiga ega.

Dunyo tilshunosligida toponimika sohasiga ilmiy-nazariy jihatdan taraqqiy etgan va mukammallikka erishgan ilmiy yo‘nalish sifatida qaralmoqda. Hozirgi paytda dunyo ilmiy onomastika maktablarida sohaviy yo‘nalishlar bo‘yicha tadqiqotlar ko‘lami yanada kengayib, takomillashib bormoqda. Ayniqsa, bugungi kun dunyo toponimikasi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, tabiiy-geografik, madaniy va boshqa omillar ta‘sirida boyib, ma‘no hamda shakliy jihatidan o‘zgarishga uchramoqda. Shuning uchun ham toponimik birliklarning barcha lisoniy qirralarini, jumladan, ularning yasaliş va hosil bo‘lish yo‘llarini zamonaviy tilshunoslik aspektlari nuqtayi nazaridan tadqiq etish ahamiyatga molik kun tartibidagi dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

O‘zbek tilshunosligida ham toponimika muayyan yutuq va natijalarga erishgan, ilmiy maktablari shakllangan onomastikaning bir yo‘nalishi hisoblansa-da, toponimlar makroko‘lamining yasaliş, struktural-tipologik jihatlari monografik aspektda mukammal va to‘liq o‘rganilmagan, toponimik birliklarning yasaliş takomili yuzasidan ilmiy-nazariy xulosalar chiqarilmagan. “Bugungi globallashuv davrida har bir mustaqil davlat o‘z milliy manfaatini ta‘minlash, bu borada avvalo o‘z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi tabiiydir”¹. Shu jihatdan toponimlarining yasaliş, tuzilish xususiyatlarini ochib berish muhim vazifalar sirasiga kiradi. Mustaqillik yillarida O‘zbekiston hukumatining yangi toponimik siyosati, ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayotda amalga oshirilgan islohotlar natijasida o‘zbek tili toponimiyasida jiddiy lisoniy va nolisoniy o‘zgarishlar yuz berdi. Ana shunday o‘zgarishlar ta‘sirida tilning oddiy apellyativ leksik sathida bo‘lgani kabi toponimlar makroko‘lamida ham yasaliş jarayoni davom etmoqda. Toponimlarning derivatsion, morfologik va sintaktik tadqiqi tilning toponimik tizimini lisoniy jihatdan tartibga solishda muhim ahamiyatga ega. Masalaga shu nuqtayi nazardan yondashganda mazkur dissertatsiya dolzarblik kasb etadi.

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 21 октябрдаги ПФ-5850-сон “Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги фармони // www.lex.uz

O‘zbekiston Respublikasining 1995-yil 21-dekabrda yangi tahrirda qabul qilingan “Davlat tili haqida”gi Qonuni, mazkur hujjatdagi vazifalarni amalga oshirish bo‘yicha Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 10-sentyabrdagi 311-son qarori talablari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4797-son “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida”gi Farmoni va 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2019-yil 21-oktyabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi”, 2020-yil 20-oktyabrdagi “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2022-yil 21-iyundagi PQ-289-son “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmon va qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Toponimlarning yasalishi, hosil bo‘lishi va yasaliş modellari rus tilshunosligida E.F.Molina, R.A.Ageyeva, K.I.Yurgin I.M.Jeleznyak², turkologiyada K.Abdimuratov, S.Ataniyazov, R.M.Yuzbashev, B.A.Budagov, K.Konkobayev, F.G.Garipova, K.F.Gritsenko, A.A.Kamolov, R.Z.Shakurov, O.T.Molchanova, A.A.Bonyuxov, G‘.F.Sattorov³lar tomonidan o‘rganilgan.

² Каранг. Молина Э.Ф. Очерки по индоевропейскому слообразованию. Ч.1. Названия гидронимий. – Томск, 1973. – 193 с.; Агеева Р.А. Антропонимические основы в восточнославянской гидронимии Псковских и Новгородских земель. – Историческая ономастика. – М.: Наука, 1977. – С.209-216; – Гидронимия болтийского происхождения на территории Псковских и Новгородских земель. – Этнографические и лингвистические аспекты этнической истории балтских народов. – Рига, 1980. – С. 147-152; Юргин К.И. Сужение значений формантов в эвенийских топонимах. – ЯиТ, 1976. – Вып 2. – С. 220-224; Железняк И.М. Об одном случае бинаризма в гидронимии Украины // Общеслав. линг. атлас. Материалы и исслед.1978. – М., 1979. – С. 250-261.

³ Абдумуратов К. Топонимика Каракалпакии: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Нукус, 1966; Атанязов С. Топонимика Юга-Восточного Туркменистана: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ашхабад. 1966; – Туркменистанын географик отларынын дшвнндиришли созлуги. – Ашхабад: Илым, 1980. – 364 с.; Юзбашев Р.М., Будагов Б.А. Проблемы топонимии Азербайджана. Научная конференция (Баку, 30-31 мая 1974 г.). – СТ, 1974. – № 5. – С.109-111; Конкобаев К. О киргиских топонимах с компонентом Беш. – Тезисы докладов конф. аспирантов и молодых сотрудников ин-та востоковедения. – М., 1975. – С.117-119; – Топонимия Южной Киргизии. – Фрунзе: Илим, 1980. – 172 с.; Гарипова Ф.Г. Названия больших и малых озер Татарии. – Ономастика Повольжья. – Саранск, 1976. – С. 216-220; Гриценко К.Ф. Глагольные гидронимы в якутском языке. – ЯиТ, 1976, Вып.2. – С.208-213; Гулиева Л.Г. Тюркская гидронимия Кубани // СТ, 1976. – № 2. – С.50-56; Камолов А. О топонимии Башкирии // СТ, 1980. – № 2. – С. 39-46; Шакуров.Р.З. Башкирские

Hozirga qadar o‘zbek tili toponimiyasining leksik-semantik, morfologik, struktural-tipologik, yasaliş xususiyatlari S.Qorayev, T.Nafasov, Z.Do‘simov, T.Enazarov, N.Uluqov, L.G.Karimova, T.Rahmatov, J.Latipov, N.Oxunov, N.Begaliyev, Y.Ne‘matova⁴ va boshqalar tomonidan muayyan darajada o‘rganilgan. So‘z turkumlariga xos konversiya A.G‘ulomov, G‘.Abdurahmonov, F.Abdullayev, S.Obloqulov, H.Ne‘matov⁵, onomastik konversiyaning ayrim jihatlari E.Begmatov⁶, Z.Do‘simov⁷, N.Uluqov⁸ tomonidan o‘rganilgan, biroq o‘zbek tili toponimik tizimiga xos konversiya va transtoponimizatsiya masalalari monografik tadqiq etilmagan.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Namangan davlat universiteti o‘zbek tilshunosligi kafedrasining 2021-2025-yillarga mo‘ljallangan “O‘zbek onomastikasining dolzarb muammolari” mavzusidagi istiqbolli ilmiy-tadqiqot rejasi doirasida bajarilgan.

топонимы бассейна реки Большой Иргиз // Ономастика Повольжья. – Саранск, 1976. – С.209-212; Молчанова О.Т. Структурно-словообразовательные классификации географических имен. – Питання сучасно ономастики. – Киев: Наук думка, 1976. – С. 49-57; Бонюхов А.А. Семантические отношения компонентов производных топонимов (на материале шорских топонимий). – Присхождение обригенов Сибири и их языков. Материалы Всесоюз. конф. (3 июня 1976 г.) – Томск, 1976. – С.147-151; Саттаров Г.Ф. Этнонимы в топонимии и антропонимии Татарии // Исслед.по татар.яз. – Казань, 1977. – С.20-63.

⁴ Қаранг. Қораев С. Ўзбек ойконимларида сўз ясалиши // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1995. – № 5-6. – Б.41-42; Нафасов Т. Сон+от конструкцияли топонимлар // Қарши давлат педагогика институти профессор-ўқитувчилари илмий конференциясининг тезислари. – Қарши, 1967. – Б.65-66; Нафасов Т. Топонимы Кашкадарьинской области: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1968. – 24 с. Ўша муаллиф. Жанубий Ўзбекистон топонимиясининг этнолингвистик анализи. – Тошкент: ТДПИ, 1985. – 83 б; Дўсимов З. Топонимлар таснифи масаласига доир // Ўзбек тили ва адабиёти, 1978. – № 1. – Б.17-20; Дўсимов З. Хоразм топонимлари. – Тошкент: Фан, 1985. – Б. 37-64.; Латипов Ж. Топонимларнинг ясалиши // Ўзбек тили ва адабиёти, 1975. – № 2. – Б.84-86; Охун Н. Қўқон группа районлари топонимиясининг баъзи грамматик хусусиятлари // Ўзбек тили ва адабиёти масалалари. – Тошкент: Фан, 1971. – Б. 116-122; Охун Н. Топонимия Какандской группы районов: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1978. – 24 с.; Ўша муаллиф. Жой номларининг синтактик-лексик усул билан ясалиши // Тил ва адабиёт таълими, 1997. – № 5-6. – Б.15-49; Каримова Л. Ўзбек тилида топонимларнинг ўрганилиши. – Тошкент: Фан, 1982. – Б. 27-56; Эназаров Т. Объектли бирикмадан ҳосил бўлган туркий топонимлар // Тил ва адабиёт таълими, 1999. – № 3. – Б. 57-61; Бегалиев Н. Самарқанд вилояти гидронимлари (лисоний таҳлили): Филол. фан. ном. ... дисс. – Самарқанд, 1994. – 144 б. Бегжанов.Т.А., Абдимуратов К. Структура каракалпакских топонимов // СТ., 1971. – №6. – С.85-88. Молчанова.О.Т. О компоненте «сай», «чай» в географических наименованиях // Проблемы теории и метод, яз. – Ярославль, 1976. – С. 100-108; Мурзаев Э.М. Апеллятивы в топонимах Средней Азии // Ономастика Средней Азии. – Фрунзе: Илим, 1980. – С. 198-211; Охун Н. Қўқон группа районлари топонимиясининг баъзи грамматик хусусиятлари // Ўзбек тили ва адабиёти масалалари. – Тошкент: Фан, 1971. – Б. 116-122; Дўсимов З. Топонимлар таснифи масаласига доир // Ўзбек тили ва адабиёти, 1978. – № 1. – Б. 17-20; Нафасов Т. Сон+от конструкцияли топонимлар // Қарши давлат педагогика институти профессор-ўқитувчилари илмий конференциясининг тезислари. – Қарши, 1967. – Б.65-66; Қораев С. Ўзбек ойконимларида сўз ясалиши // Ўзбек тили ва адабиёти, 1995. – № 5-6. – Б. 41-43; Каримова Л. Ўзбек тилида топонимларнинг ўрганилиши. – Тошкент: Фан, 1982. – Б. 27-56; Латипов Ж. Топонимларнинг ясалиши // Ўзбек тили ва адабиёти, 1969. – № 5. – Б. 84-86.

⁵ Неъматов Х., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – 136 б.

⁶ Бегматов Э. Антропонимика узбекского языка: Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Ташкент, 1965.; Бегматов Э. Антропонимияни тадқиқ қилишнинг социоллингвистик аспекти // Ўзбек тили ва адабиёти, 2011. – № 4.; Бегматов Э.Антропонимлар – антропоцентриқ тадқиқ объекти // Ўзбек тили ва адабиёти, 2013. – № 3.

⁷Дўсимов З. Дўсимов З. Топонимлар таснифи масаласига доир // Ўзбек тили ва адабиёти, 1978. – №1; Дўсимов З. Хоразм топонимлари. – Тошкент: Фан, 1985; Хоразм топонимияси ва “Авесто”// “Авесто” – буюк комусий асар. – Урганч, 2001.

⁸ Улуқов Н. Наманган вилояти гидронимиясида ономастик конверсия ва трансонимизация // Ўзбек тили ва адабиёти, 2007. – № 5. – Б. 73-77.

Tadqiqotning maqsadi o'zbek tili toponimlar makroko'lamidagi konversiya va transezimizatsiya masalalarini Namangan viloyati toponimiyasi materiallari asosida ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

toponimlar va apellyativlar yasashining farqli jihatlarini yoritish;
toponimlarning yasash va hosil qilish omillarini izohlash;
konversiya usuliga doir qarash va talqinlarni ochib berish;
toponimlarning konversiya usulida yasashini yoritish;
onomastik konversiya va transezimizatsiya, transtoponimizatsiya hamda uning turlarini yoritish;

boshqa onomastik birliklarning toponimlashuvi masalalarini ochib berish.

Tadqiqotning obyekti sifatida o'zbek tili toponimiyasida konversiya usulida yasalgan va transezimizatsiya asosida hosil qilingan toponimlar olindi.

Tadqiqot predmetini o'zbek tilida konversiya usulida yasalgan va transezimizatsiya asosida hosil qilingan toponimlarning lug'aviy asoslari, morfologik, nominatsion-motivatsion, lug'aviy-ma'noviy xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda tavsiflash, tasniflash, qiyoslash, leksik-semantik, nominatsion-motivatsion, derivatsion, statistik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

toponimik birliklar yasashiga ko'ra apellyativ leksikadan struktural va ifodaviy farqli jihatlarini, toponimlarning hosilaviy shakllanishi usullari, lug'aviy, morfologik asoslari, vosita va modellari tahlili orqali ularning etimologik, tarixiy, lingvomadaniy belgilari aniqlangan;

toponimlar yasashidagi o'ziga xos lisoniy xususiyatlar, apellyativ leksika negizida konversiya usulda toponimlar yasashining struktural, leksik va nominatsion-motivatsion asoslari hamda yangi paydo bo'lgan onomastik birliklar tarkibidagi leksik-semantik, morfologik, struktural o'zgarishlarning tabiiy, ijtimoiy omillari va madaniy, maishiy hamda mafkuraviy sabablari ochib berilgan;

toponimik tizimda onomastik birliklarning o'zaro munosabati, ularning birining ikkinchisiga o'tishi – transezimizatsiya, uning yuzaga kelishidagi lisoniy va nolisoniy omillar hamda onomastik konversiya, transezimizatsiya hodisasi orqali yuzaga chiquvchi leksik-semantik, grammatik va struktural xususiyatlar ilmiy-nazariy asoslar bilan dalillangan;

turli onomastik birliklardan transezimizatsiya usulida hosil bo'lgan antropotoponim, etnotoponim, geortotoponim, mifotoponim, agiotoponim va boshqa toponim turlari hamda bir toponimdan boshqa toponim hosil bo'lishi bilan bog'liq derivatsiya masalalarining lingvistik yo'llari, belgilari tahliliy-tavsifiy usullar orqali isbotlab berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

toponimik tizimda konversiya va transezimizatsiya tadqiqi natijasida chiqarilgan xulosa hamda talqinlar o'zbek tili onomastikasi, xususan, toponimikasini yangi ilmiy-nazariy qarashlar bilan boyitishi, tilshunoslikning so'z yasashi, leksikologiya, morfologiya sohalari bo'yicha yaratiladigan yangi darslik va o'quv qo'llanmalarining mukammalashuviga xizmat qilishi asoslangan.

o‘zbek tili toponimlarining yasalishi, hosil bo‘lishini o‘rgatish hamda o‘rganishda, toponimlarning izohli va imlo lug‘atlarini tuzishda manba bo‘lishi isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tahlilga tortilgan materiallar o‘zbek tili tabiatidan kelib chiqqan holda, xulosalar qilish imkonini berganligi, asosligi, metodologik mukammalligi, qo‘yilgan masalalarning aniqligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, dissertatsiya materiallari va ilmiy natijalari o‘zbek tili toponimikasini toponimlarning yasalishi, hosil bo‘lishi va struktural-tipologik xususiyatlari haqidagi yangi ilmiy qarashlar bilan boyitishda muhim nazariy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, uning materiallari, natija va xulosalari o‘zbek tili onomastikasi, xususan, toponimikasiga oid darslik va qo‘llanmalar yozishda, oliy o‘quv yurtlarida toponimika bo‘yicha maxsus kurslar, shuningdek, umumiy o‘rta ta‘lim maktablari va oliy o‘quv yurtlarida atoqli otlarning, jumladan, toponimlarning yasalishiga doir mavzularni o‘rgatishda manba vazifasini bajaradi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O‘zbek tili toponimiyasida konversiya va transonimizatsiya tadqiqi bo‘yicha olingan ilmiy natijalari asosida:

onomastik birliklarning o‘zaro munosabati, birining ikkinchisiga o‘tishi – transonimizatsiya, uning yuzaga kelish omillari, sabablari va onomastik konversiyadan farqli jihatlari, boshqa onomastik birliklardan transonimizatsiya usulida joy nomlari hosil bo‘lishi – toponimlashuv (toponimizatsiya) va uning mahsuli sifatida hosil bo‘lgan antropotoponim, etnotoponim, agiotoponimlar hamda bir toponimdan boshqa toponim hosil bo‘lishi masalalariga doir ilmiy-nazariy qarashlardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasida 2021-2023-yillar bajarilgan PZ-202004165 raqamli “Umumiy o‘rta ta‘limning boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘g‘zaki va yozma kompetensiyalarini rivojlantiruvchi elektron platforma yaratish” mavzusidagi amaliy grant loyihasida foydalanilgan (Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2023-yil 6-iyuldagi 01/10-1326 son ma‘lumotnomasi). Natijada atoqli otlar, xususan, toponimlarning yasalish va hosil bo‘lish usullari hamda modellari, apellyativ leksikadan konversiya usulida hosil bo‘lishiga doir izoh hamda talqinlar takomillashgan;

onomastik birliklarning o‘zaro munosabati, birining ikkinchisiga o‘tishi – transonimizatsiya, uning yuzaga kelish omillari, sabablari va onomastik konversiyadan farqli jihatlari, boshqa onomastik birliklardan transonimizatsiya usulida joy nomlari hosil bo‘lishi – toponimlashuv (toponimizatsiya) va uning mahsuli sifatida hosil bo‘lgan antropotoponim, etnotoponim, agiotoponimlar hamda bir toponimdan boshqa toponim hosil bo‘lishi masalalariga doir ilmiy-nazariy qarashlardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasidagi 2021-2023-yillarda bajarilgan AM-FZ-201908172 raqamli “O‘zbek tilining ta‘limiy korpusini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2023-yil 6-iyuldagi 01/10-1325-son ma‘lumotnomasi). Natijada onomastik birliklarning o‘zaro munosabati,

трансонимизatsiya va u asosida toponimlar hosil bo'lishiga doir izoh hamda talqinlar mukammallashtgan;

atoqli otlar, xususan, toponimlar yasalishidagi o'ziga xos lisoniy jihatlar, oddiy so'zlar (apellyativ leksika) negizida konversiya usulida toponimlar hosil bo'lishining leksik-semantik va nominatsion-motivatsion, morfologik asoslari, onomastik birliklarning o'zaro munosabati, birining ikkinchisiga o'tishi – трансонимизatsiya, boshqa atoqli otlardan toponimlar hosil bo'lishi, antropotoponim, etnotoponim, agiotoponim va boshqa toponim turlari hosil bo'lishiga doir ilmiy xulosalaridan 2022-2023-yillarda O'zMTK "O'zbekiston" teleradiokanalining "Bedorlik", "Ijod zavqi", "Ta'lim va taraqqiyot", "Milliy ma'naviyat" eshittirishlarining ssenariysini yozishda foydalanilgan (O'zbekiston teleradiokompaniyasining "O'zbekiston" teleradio kanali davlat muassasasining 2023-yil 30-iyundagi 02-36-989-son ma'lumotnomasi). Natijada tinglovchilarning o'zbek tilida toponimlar yasalishiga doir bilim va tasavvurlarini boyishida ahamiyatga ega bo'ldi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 15 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta, (5 ta respublika hamda 2 ta xorijiy jurnallarda) maqola nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar va ilova tarzida berilgan konversiya, трансонимизatsiya usulida hosil bo'lgan toponimlar ro'yxatidan iborat bo'lib, 151 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

"Toponimlar yasalishining nazariy va amaliy masalalari" nomli 1-bobda toponimlarning yasalish xususiyatlari va usullari yoritilgan.

Bobning **"Toponimlarning yasalish xususiyatlari"** nomli 1-bo'limida toponimik birliklarning yasalishiga doir ilmiy qarashlar tahlili berilgan.

Tilning lug'at tarkibida *apellyativ leksika* va onomastik birliklar alohida o'rin tutadi. Morfologiya nuqtayi nazaridan apellyativ leksika *turdosh so'zlar*, onomastik birliklar *atoqli otlar* hisoblanadi. Atoqli otlar – onomastik birliklar leksik-semantik, nominatsion-motivatsion, yasalish va uslubiy xususiyatlariga ko'ra apellyativ leksikadan farqlanadi.

O'zbek tilining so'z yasalish tizimi A.G'ulom, A.Hojiyevlar tomonidan monografik tadqiq etildi⁹, biroq ayrim ishlarini e'tiborga olmaganda¹⁰,

⁹ Хожиев А. Ўзбек тили сўз ясашиши тизими. – Тошкент: О'qituvchi, 2007. – 168 б.

¹⁰ Абдуллаев Ф. Киши отларининг кискартириш усуллари // Ўзбек тили ва адабиёти, 1960. – №3; Ўша муаллиф. Баъзи киши отлари ва уларнинг кискарган формалари // Абдуллаев Ф. Хоразм шевалари. – Тошкент, 1961. – 1-т. – Б.106-109; Бегматов Э. Ўзбек тили антропонимикаси: Филол. фан. ном. ... дис. – Тошкент, 1965. – 483 б; Ўша муаллиф. Ўзбек исмлари маъноси. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 1998. – 608 б; Ўша муаллиф. Ўзбек тили антропонимикаси. – Тошкент: Фан, 2013. – 264 б.; Хусанов Н.А. XV аср ўзбек адабий ёдгорликларидаги антропонимларнинг лексик-семантик ва услубий хусусиятлари: Филол. фан. док. ... дис. – Тошкент, 2000; Хусанов Н. Ўзбек антропонимлари тарихи. –

toponimlarning yasaliş xususiyatlari, modellari mukammal tadqiq etilmagan. Ilmiy tadqiqotlarda ko‘pincha toponimlarning yasalişini struktural-tipologik tasnifi va tahlili bilan aralash holda o‘rganilgan, yasaliş usullari, modellari, yasovchi vositalar aniq va yorqin ochib berilmagan, masalani yoritishda chalkashliklar bor.

Hozirga qadar toponimikaga doir barcha dissertatsiya, risola, o‘quv adabiyoti va maqolalarda toponimlarning yasalişini xususida bir xil fikrlar kuzatiladi, misollar ham o‘xshash yoki aynan. Bu tadqiqotlarda masalaga an‘anaviy yondashuv, takroriylik va sohaga doir tayanch ilmiy adabiyotlarga asoslanish, ularga havolalar berish bilan cheklanish natijasidir.

Apellyativ leksika va onimlar (atoqli otlar)ga xos farqli lisoniy belgi-xususiyatlardan biri – ularning yasalişida bo‘lib, apellyativ leksikaning o‘z lisoniy materialiga egaligi, atoqli otlarning, jumladan, toponimlarning ana shunday materialga ega emasligidir. Bu farqli lisoniy belgi ko‘pgina onomastikaga doir ilmiy adabiyotlarda alohida ta‘kidlanadi. Jumladan, T.A.Serebrennikov: “Toponim va antroponimlar hamisha til bazasida yaratiladi. Ularni hosil qilishda tilning kundalik turmushda ko‘p qo‘llanuvchi modellaridan, qo‘shma so‘zlardan, so‘z birikmalaridan va hatto, butun bir gaplardan foydalaniladi”, – deb yozadi¹¹.

Albatta, yuqoridagi fikr asosli. Toponimlar va boshqa onimlar ham tilning leksik birligi. Shu nuqtayi nazardan ular ham til qonuniyatlari negizida yashaydi. Boshqa onomastik birliklar kabi toponimlar ham yasaliş xususiyatiga ega.

Toponimik birliklarni yasashda tildagi apellyativ leksika va so‘z yasovchi affikslar hamda usullardan foydalaniladi. Masalan, o‘zbek tiliga fors tilidan o‘zlashgan *egallovchi* ma‘nosini anglatuvchi *-iston* qo‘shimchasi vositasida otlardan narsa, predmetning mo‘llicini, makon ifodalovchi o‘rin otlari (*bog‘iston*, *guliston*, *qabrison*, *cho‘liston*), ya‘ni apellyativlar va xalq, millat nomiga qo‘shib, ular yashaydigan joy nomlari yasaladi: *O‘zbekiston*, *Qirg‘iziston*, *Tojikiston* kabi¹².

Namangan urbanonimiyasiga xos “*Lola*”, “*Go‘zal*”, “*Oromgoh*”, “*Sardoba*”, “*Sumalak*” kabi daha nomlari ot va sifat turkumlariga mansub apellyativlardan hech qanday grammatik vositalarsiz konversiya, *Jiydakapa* (Uychi t.), *Beshkapa*, *Peshqo‘rg‘on* (Chor. t.) kabi qo‘shma tarkibli toponimlar kompozitsiya usulida yasalgan.

Ilmiy adabiyotlarda atoqli otlar, jumladan, toponimlar yasalmaydi, hosil qilinadi degan qarashlar bor. A.Hojiyevning fikricha, “... tildagi mavjud birliklar, so‘z yasaliş birliklari asosida, ma‘lum usul orqali yangi so‘z hosil qilish bilan u yoki bu til va nutq birliklarining, ma‘lum sabablar tufayli, lug‘aviy birliklarga o‘tishi boshqa-boshqa hodisalardir”. Olimning fikricha, so‘z yasalişining *leksik-semantik usul*, *morfologik-sintaktik usul* deb ta‘riflanayotgan turlarida ham so‘zning biror sabab tufayli yuzaga kelish hodisasi bor, lekin so‘z yasaliş hodisasi yo‘q¹³. Albatta, bu fikrda ham ma‘lum asos bor. Ayrim onomastik birliklar til leksikasida mavjud o‘z va o‘zlashma qatlamga mansub apellyativlar hamda onomastik birliklardan yasaladi hamda hosil qilinadi.

Тошкент: Navro‘z, 2014. – 244 б. Раҳимов С. Хоразм минтақавий антропонимияси: Филол. фан. ном. ... дис. автореф. – Тошкент, 1998. – 24 б.; Низомова Ш. Ўзбек тахаллусларининг тарихий-лисоний тадқиқи: Филол. фан. фал. док. ... диссер. – Наманган, 2021. – 222 б.

¹¹ Серебренников Т.А. О методах изучения топонимических названий // Вопросы языкознания, 1959. – № 6. – С. 16.

¹² Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2020. – 5-ж. – Б.580.

¹³ Ҳожиёв А. Ўзбек тили сўз ясаиши тизими. – Тошкент: О‘qituvchi, 2007. – Б. 8.

Топонимлар yasalish prinsipi jihatidan oddiy soʻz yasalishidan farq qilmaydi. Soʻz yasalishi usullari va vositalari toponim yasashda ham ishtirok etadi. Ammo atoqli otlarning oʻziga xos bir qator semantik va grammatik xususiyatlarini eʼtiborga olmoq lozim.

Leksemalar toponimga aylangach, maʼlum obyekt bilan bogʻlanadi va shu obyektни ifodalash uchun maxsuslashadi. Leksemalarning toponimga aylangunga qadar boʻlgan maʼnosi ikkinchi planga tushadi. Toponimga aylangach, uning asosiy funksiyasi maʼlum obyektни xuddi shunday boshqa obyektдан farqlashdan iborat boʻladi. Shunday ekan, bu holatlar bilan bogʻliq holda uning formal-morfologik xususiyati oʻzgaradi¹⁴.

Bobning 2-boʻlimida **“Toponimlarning yasalish usullari va modellari”** yoritilgan.

Toponimlarning yasalish modellari har bir tilda oʻziga xos xususiyatlarga ega boʻladi. Shuningdek, bunda tillararo umumiyliklar ham mavjud. Chunki toponim yasash modellari, umuman hosil qilish, yaratish sxemasi umumlashgan, abstrakt hodisadir¹⁵. Davrlar davomida har bir til oʻzining toponim yasash modellari sistemasini hosil qilgan. Albatta, har bir tilning toponimik modellari shu tilning soʻz yasash modellari asosida vujudga keladi. Masalan, slavyan tillari toponimik tizimida affiksatsiya, turkiy tillar toponimiyasida soʻzlar qoʻshilmasidan toponim yasash asosiy oʻrinda turadi¹⁶.

N.Oxunov toponimlar yasalishining quyidagi uch usulini qayd etadi: 1. Onomastik konversiya usuli. 2. Affiksatsiya usuli. 3. Sintaktik-leksik usul¹⁷.

T.Enazarov “toponimik yasalish tamoyilining meʼyorlari” termini ostida quyidagi usullarni koʻrsatadi: 1. Affiksatsiya usuli. 2. Kompozitsiya usuli. 3. Abbreviatsiya usuli. 4. Onomastik konversiya usuli¹⁸. Bizningcha, yasalish usullariga nisbatan “toponimik yasalish tamoyilining meʼyorlari” terminining qoʻllanishi til meʼyorlarga zid. Abbreviatsiya usulida toponimlar yasalmaydi. Materiallar tahlili oʻzbek tilida toponimlar affiksatsiya, kompozitsiya, konversiya usullarida yasalishini va transonimizatsiya usulida hosil qilinishini koʻrsatadi.

Affiksatsiya usulida toponimlar yasalishi. Oʻzbek tili soʻz yasalish tizimida affiksatsiya usuli sarmahsul hisoblanadi, toponimlar yasalishida kam qoʻllanadi.

Oʻzbek tilida affiksatsiya usuli bilan sodda tarkibli toponimlar yasaladi, biroq toponim yasashga xoslangan qoʻshimchalar bir nechta xolos. Tadqiqotlarda *-chi* (*Bugʻdoychi, Boʻtqachi, Karnaychi, Koʻmirchi, Sandiqchi, Ipakchi, Ovchi*), *-kor* (*Paxtakor, Gʻallakor, Sohibkor*), *-chilik* (*Dalachilik, Jiyakchilik, Koʻnchilik, Taroqchilik, Kosibchilik, Pichoqchilik, Egarchilik*), *-xona, -obod* kabi birliklarni topoformantlar sifatida talqin etadi¹⁹. Aslida faqat *obod* vositasidagina toponimlar yasaladi.

¹⁴ Дўсимов З. Топонимларнинг ясаши масаласига доир // Ўзбек тили ва адабиёти, 1980. – №2. – Б.44-45.

¹⁵ Суперанская Структура имени собственного. – М.: Наука, 1972. – С.87. Охунув Н. Жой номларининг грамматик тузилиши ва ясаши. – Қўқон, 2004. – Б.3. 40 б.

¹⁶ Қораев С. Географик номлар маъноси. – Тошкент: Ўзбекистон, 1970. – Б.14.

¹⁷ Охунув Н. Ўзбекистон топонимияси. – Қўқон, 2005. – Б.64.

¹⁸ Эназаров Т. Топонимларнинг этимологик тадқиқ қилишнинг илмий-назарий ва амалий-услубий асослари. – Тошкент, 2001. – I китоб.

¹⁹ Аҳмадалиев Ю.И. Топонимика ва географик терминшунослик. – Фарғона, 2018. – Б.64-65.

Топонимлар yasalishi haqida fikr yuritganda diaxron va sinxron yasalishni farqlash lozim. Tarixan toponimlar affiksatsiya usulida ham faol yasalgan, biroq hozirga kelib bu usulda toponimlar yasalishi mahsulsiz, deyarli to‘xtagan.

Ko‘pgina tadqiqotchilar *-chi*, *-chilik* affikslarini toponim yasovchi affikslar sifatida talqin etadilar. Z.Do‘simov to‘g‘ri qayd etganidek, bu qo‘shimchalar qadimdan shu kasb bilan shug‘ullanuvchi shaxs otini yasashga moslashgan²⁰.

A.Hojiyev: “Ayrim ot yasovchilar, deyarli yoki butunlay o‘z vazifasini to‘xtatdi – mahsulsiz qo‘shimchalarga aylandi”, degan fikr bildiradi²¹. O‘zbek tili toponimiyasiga xos *-iston*, *-loq* affikslariga ham bu fikrlar taalluqlidir.

Топонимларning morfologik usulda yasalishi haqida so‘z borganda, atoqli otning yasalish jarayonini to‘g‘ri belgilash muhimdir. Bu o‘rinda Z.Do‘simovning ushbu fikrlarini asosli deb hisoblash mumkin: “... toponimlarning yasalishi va tuzilishi turlicha talqin qilinadi. Bu hol ushbu masalada biroz chalkashishiga olib keldi. Ba‘zi qo‘shimchalar hech bir asossiz toponim yasovchi morfema deb talqin qilinadi”²². Masalan, o‘zbek tilidagi *-iston* [f. “egallovchi” ma’nosini anglatuvchi qo‘shimcha] quyidagi vazifalarda qo‘llanadi:

1) xalq, millat nomiga qo‘shilib, u yashaydigan joyni anglatuvchi o‘rin oti yasaydi: *O‘zbekiston*, *Qirg‘iziston*, *Turkmaniston* kabi;

2) otlarga qo‘shilib asosdan anglashilgan predmetning mo‘llicini ifodalovchi o‘rin oti yasaydi: *bog‘iston*, *guliston*, *cho‘liston*, *qabrison* kabi.²³

Hozirda *-iston* affiksi bilan toponimlar yasash ham to‘xtagan. Respublikaning boshqa hududlari, jumladan, Namangan viloyatidagi *-iston* tarkibli *Bog‘iston* (Chortoq t.), *Guliston* (Uychi t.) oykonimlariga kelsak, ular affiksatsiya usulida emas, balki konversiya usulida yasalgan, ya’ni yasama *bog‘iston*, *guliston* apellyativlarining atoqli otga o‘tishi mahsulidir.

Sintaktik usulda toponimlar yasalishi. O‘zbek tili toponimik makroko‘lamida kompozitsiya usuli faol qo‘llanadi. *Yangiqo‘rg‘on*, *Uchqo‘rg‘on*, *Hasanobod*, *Yangiyer* (Nam. v.) kabi.

A.Hojiyevning talqinicha, sintaktik-leksik usul bilan so‘z yasalishi so‘z birikmasining so‘z (leksema)ga aylanishi demakdir. Bu jarayonda so‘z birikmasi sintaktik birlikdan leksik birlikka aylanadi – qo‘shma so‘z yuzaga keladi²⁴. Ilmiy manbalarda so‘z yasalishining bu usuli *leksikalizatsiya* deb ham atalgan²⁵.

So‘z birikmalarining leksikalizatsiya vositasida qo‘shma toponimga aylanishini quyidagi turlarga bo‘lib o‘rganish mumkin:

1. Sifatlovchili (yoki bitishuv munosabatidagi) so‘z birikmalarining qo‘shma toponimga aylanishi: *sho‘r suv* > *Sho‘rsuv*, *katta qo‘rg‘on* > *Kattaqo‘rg‘on*, *yangi yer* > *Yangiyer*, *qora suv* > *Qorasuv*, *oq tepa* > *Oqtapa* kabi.

2. Qaratqichli (yoki moslashuv munosabatidagi) so‘z birikmalarining qo‘shma toponimga aylanishi. Bunday qo‘shma nomlar qaratqichli so‘z birikmalarining soddalashuvi (ixchamlashuvi) natijasida paydo bo‘ladi:

²⁰ Дўсимов З. Хоразм топонимияси. – Тошкент: Фан, 1985. – Б.48.

²¹ Хожиев А. Ўзбек тили сўз ясаши тизими. – Тошкент: О‘қитувчи, 2007. – Б.111.

²² Дўсимов З. Топонимик индикаторлар // Ўзбек тили ва адабиёти, 1972. – № 4.– Б.71-74.

²³ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: О‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2020. – 5-ж. – Б.580.

²⁴ Хожиев А. Ўзбек тили сўз ясаши тизими. – Тошкент: Ўқитувчи, 2010. – Б.30.

²⁵ Маматов Н. Ўзбек тилида кўшма сўзлар. – Тошкент, 1982. – Б.142.

a) qaratqich va egalik qo'shimchalarining tushib qolishi. Bunda avval qaratqich (-ning), so'ng egalik (-i) qo'shimchasi tushadi: *Do'smatning cheki* > *Do'smat cheki* > *Do'smatchek*, *Olimning to'qayi* > *Olim to'qayi* > *Oldimto'qay*, *Umarbekning guzari* > *Umarbek guzari* > *Umarbekguzar* kabi;

b) qaratqich qo'shimchasining tushib qolishi. Mazkur ko'rinishdagi toponimlarda qaratqich qo'shimchasi tushadi, lekin III shaxs egalik qo'shimchasi saqlanadi: *ariqning boshi* > *Ariqboshi*, *ko'lining bo'yi* > *Ko'lbo'yi* kabi.

3. To'ldiruvchili (yoki boshqaruv munosabatidagi) so'z birikmalarining qo'shma toponimga aylanishi. Bunda -ni qo'shimchasining tushishi kuzatiladi: *Toshkesar*, *Bedabosgan*, *Tangatopdi*, *Otqamar* kabi²⁶.

Qo'shma tarkibli toponimlar tarkibida *qishloq*, *qo'rg'on*, *mahalla*, *tepa* kabi toponimik indikatorlar faol qo'llanadi. Ular toponimlarning turini aniqlovchi qismlardir.

O'zbek tili toponimik tizimida qo'shma tarkibli toponimlar miqdoran ko'p. Bu, albatta, nomlar yasashda aniqlikka intilish mahsulidir.

Keyingi davrlarda *obod* topoformanti vositasida turli lug'aviy birliklar, xususan, jamlik, o'rin-joy, narsa-buyum, mavhum tushunchalarni ifodalovchi ot apellyativlardan toponimlar, asosan, aholi manzillarining, ya'ni mahalla, qishloq nomlari yasalishi faollashgan: *Hojibod MFY*, *Islomobod MFY* (Uychi t.), *Elobod MFY* (Nam. sh.), *Hayitobod MFY* (Ming. t.), *Mehnatobod MFY* (Chust t.), *Gulobod MFY* (Kos. t.), *Dehqonobod MFY* (Chor. t.), *Mirzaobod MFY*, *Islomobod MFY* (Uychi t.), *Mulkobod MFY* (Ming.t.) va boshqalar.

Ayrim olimlar *biror narsa ko'p* ma'nosini anglatuvchi *-xona* qo'shimchasi vositasida urug' nomlari va boshqa so'zlardan *Bahrinxona*, *Do'rmonxona*, *Bo'rixona* (bo'ri ko'p joy), *Kaptarxona* (kaptar ko'p joy), *Jayraxona* (jayra ko'p joy) toponimlari yasalgan deb ko'rsatishadi²⁷. Bu fikrga qo'shilish qiyin, tojikcha *xona* so'zi *uy*, *turarjoy*, *bino* ma'nolarini anglatadi, biroq yuqoridagi toponimlar affiksatsiya usulida emas, konverziya usulida yasama so'zlardan hosil qilingan.

O'zbek tili toponimiyasida kompozitsiya usulida qo'shma tarkibli toponimlar yasalishining quyidagi modellari kuzatiladi:

I. Ot + ot modelidagi qo'shma tarkibli toponimlar. Masalan, *Qayrag'ochovul*, *Gulqishloq* (Ming t.), *G'ishtko'prik* (Uychi t.), *Xonqo'rg'on* (Koson t.), *Yorqishloq* (Chust t.), *Toshqo'rg'on* (Pop t.) kabi;

II. Sifat + ot qolipidagi qo'shma tarkibli toponimlar: (Norin t.), *Qorapolvon* (Yangi. t.), *Qorashahar* (Ming.t.), *Qoraqo'rg'on* (Chust t.), *Sho'rqishloq* (Nam. t.) *Qizilqiyoy* (Yang. t.), *Oqtosh* (To'ra. t.) kabi.

III. Son + ot qolipidagi qo'shma tarkibli toponimlar: *Yettiqo'rg'on* (Chust t.), *Yettikon* (To'ra. t.), *Uchtepa* (Norin t.) kabi.

IV. Fe'l + ot modelidagi qo'shma tarkibli toponimlar: *Keskanyor* (Chortoq t.), *Qolgandaryo* (Mingbuloq t.), *Bordimko'l* (To'raqo'rg'on t.) kabi.

Dissertatsiyaning "**Konverziya usulida toponimlar yasalishi tahlili**" nomli 2-bobida konverziya haqidagi ilmiy-nazariy qarashlar, onomastik konverziya va uning turlari, xususan, toponimizatsiya (toponimlashuv) hodisasi yoritilgan.

²⁶ Охунов Н. Ўзбекистон топонимияси. – Қўқон, 2005. – Б. 66-67.

²⁷ Qorayev S. Toponimika. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati, 2006. – B. 34-35. Ахмадалиев Ю.И. Топонимика ва географик терминшунослик. – Фарғона, 2018. – Б.65.

Mazkur bobning 1-bo'limida **“Toponimik tizimda konversiya va uning tadqiqi”** berilgan.

Tabiat va jamiyatdagi o'zgarishlar, ya'ni nolisoniy va lisoniy omillar ta'sirida tilning onomastik birliklari ham miqdoran boyib, ma'noviy va shakliy jihatdan sayqallanib, takomillashib boradi. Bu jarayon til taraqqiyotiga xos *derivatsiya, konversiya, transformatsiya, transpozitsiya* singari hodisalari orqali yuzaga chiqadi.

Konversiya termini tarixiy-etimologik jihatdan lotincha *conversio* so'zidan olingan bo'lib, aslida *aylantirish; o'zgartirish* ma'nolarini anglatadi. O'zbek tilida *almashtirish, o'zgartirish, qayta hisob-kitob qilish; oldingi yillarda chiqarilgan davlat zayomlarini yangisi bilan almashtirish* ma'nolarida qo'llanadi²⁸.

Tilshunoslikda so'zning fonetik va morfologik jihatdan o'zgarmay, bir so'z turkumidan boshqa so'z turkumiga o'tishi, shu yo'l bilan yangi so'z hosil bo'lishi *konversiya* deb ataladi.²⁹ Ayrim ilmiy adabiyotlarda *konversiya* so'zlarning turkumdan turkumga o'tishi sifatida talqin etiladi.

Tilda so'zlarning bir turkumdan boshqa turkumga o'tishi to'xtovsiz bo'ladi, chunki so'z turkumlarining o'zi qat'iy chegara bilan ajralib turuvchi hodisa emas, tilning doimiy harakati natijasida so'zlar bir leksik-grammatik kategoriya tomon siljib, ularning vazifasini bajarishga moyillasha boradi.

Konversiya termini turli soha va fanlarda qo'llanadi, ammo tilshunoslikda bu termin so'z yasashining turlaridan biri sifatida talqin qilinadi. *Konversiya* so'z yasashiga oid adabiyotlarda hozirga qadar *so'z yasashining leksik-semantik usuli* yoki *leksik-grammatik usuli* deb atalishi ham kuzatiladi.

Rus tilshunosligida A.I.Smirniskiy, L.V.Shcherba, V.V.Lopatin, S.P.Safranova, I.A.Melchuk, A.V.Superanskaya, Y.S.Kubryakova, Z.A.Potixa, A.F.Juravlevlarning tadqiqotlarida *konversiya* borasida qarashlar bor. V.V.Vinogradov, o'z navbatida, *konversiya* hodisasiga so'z yasashning *leksik-semantik usuli* sifatida qaraydi³⁰.

Tahlillardan ko'rinadiki, tilshunoslikda *konversiya* hodisasiga turlicha yondashuv va buning natijasida xilma-xil ta'riflashlar kuzatiladi. *Konversiya* termini bilan ifodalangan tushuncha tilshunoslikda *so'z yasashining morfologik-sintaktik usuli, transpozitsiya, implist so'z yasash, translatsiya, nol morfemali derivatsiya, noxususiy derivatsiya, transformatsiya* terminlari bilan turli xil nomlangan.

A.I.Smirniskiy birinchi marta *konversiya* so'z yasash vositasimi, degan savolga javob berish orqali uning nisbatan aniq ta'rifini shakllantirdi. U *konversiya* shunchaki so'zning leksik ma'nosi yoki sintaktik funksiyasini o'zgartirish emas, “nutqning bir qismidan ikkinchisiga o'tish” degan fikr oxir-oqibat hech qanday natija bermasligini, konversiyaning so'z yasash usuli ekanligi, chunki bu jarayon natijasida yangi so'z paydo bo'lishini aytadi. Olimning fikricha, *konversiya* so'z yasashning bir turi bo'lib, unda faqat so'z paradigmasining o'zi so'z yasash vositasi bo'lib xizmat qiladi.

²⁸ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2020. 2-ж. – 398 б.

²⁹ Ҳожиев А. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1985. – Б.45.

³⁰ Виноградов В.В. Словообразование в его отношении к грамматике в лексикологии // Избранные труды. Исследования по русской грамматике. – М., 1975. – С.213.

Shuni ta'kidlash kerakki, rus tilshunoslarining aksariyati A.I.Smirniskiyning ortidan borib, konversiya hodisasini soʻz yasash usuli sifatida talqin qiladilar. 60-yillarning boshlarida A.I.Smirniskiy va uning izdoshlari bilan bir qatorda, yevropa tilshunoslari Dokulil va Marchand ham konversiyani soʻz yasash usuli jihatidan koʻrib chiqadilar va uning oʻziga xos yasaliş xususiyatlari haqidagi bir qator masalalarga oydinlik kiritadilar.

Konversiya, yaʼni soʻzlarning bir turkumdan boshqa turkumga oʻtib turishi ham tilning ifoda (shakliy) va mazmun planlari birliklarining nomutanosibliği – asimmetriyasi bilan tavsiflanuvchi hodisalar sirasiga kiradi. Konversiya jarayonida soʻzning shakliy jabhasida hech qanday oʻzgarish sodir boʻlmagan holda, uning sintaktik va semantik jihatlarida sezilarli oʻzgarish yuz beradi³¹.

“Soʻz turkumlari konversiyasi morfologiya bilan sintaksisning, leksikologiya bilan soʻz yasalişining kesishgan nuqtalarida yuzaga keladi”³².

Konversiyaning mohiyati soʻz turkumini oʻzgartirishdan iboratligi hodisani tashqi yasaliş tusida ekanligini koʻrsatadi. Lekin bu koʻchish bir hodisaning avvalgi holatini tamoman qoldirib, boshqa holatga oʻtishi – aylanishi xarakterida emas, balki avvalgi holati turgan holda yangi holatga ham ega boʻlishdir: bir soʻz ikki soʻzga aylanadi. Demak, bu aslida koʻchish emas, balki bir tomondan qaraganimizda, “kengayish”dir. Shunga koʻra *koʻchish, oʻtish, oʻzgarish* kabi soʻzlarining hech qaysisi bu hodisani toʻla aks ettirmaydi. Bunday soʻz yasashni nisbatan keng maʼnoda qoʻllangan konversiya (“oʻzgarish”, “oʻtish”, “aylanish”) termini bilan atash shartli xarakterga egadir³³.

Bobning 2-boʻlimida **“Onomastik konversiya usulida toponimlar yasalişii”** xususida fikr yuritilgan.

Terminologik lugʻatlarda apellyativlarning biror atoqli ot vazifasiga oʻtishi *onomizatsiya* yoki *atoqli otlashuv* sanaladi³⁴. Bu hodisa boshqa oʻrinlarda yanada aniqroq qilib, *onomastik konversiya //onomastik konversiya usuli* deb yuritiladi. Mazkur termin birinchi marta A.V.Superanskaya tomonidan qoʻllangan³⁵. Onomastik konversiya – apellyativ leksikaning hech qanday yasovchi vositasiz atoqli ot vazifasiga oʻtishi³⁶. Onomastik birliklar, jumladan, antroponimlar, toponimlar, hosil boʻlishida *onomastik konversiya* muhim oʻrin tutadi M., *lola* (oʻsimlik nomi) > *Lola* (qizlar ismi – antroponim), “*Lola*” (daha nomi – toponim, Nam. sh.) *goʻzal* (belgi-xususiyat, sifat) > *Goʻzal* (ism – antroponim), “*Goʻzal*” (daha nomi – urbanonim) kabi.

Atoqli otdan atoqli ot hosil boʻlishi onomastik terminologiyada *konversiya va transonimizatsiya* deb koʻrsatiladi³⁷. Koʻrinadiki, aynan bir til hodisasiga nisbatan ikki xil termin qoʻllanadi. N.Uluqovning fikricha, turdosh otlardan hech qanday oʻzgarishsiz atoqli otlar yasalişiga nisbatan konversiya, bir atoqli otdan boshqa atoqli ot hosil boʻlishiga nisbatan transonimizatsiya terminini qoʻllash maqsadga

³¹ Турдибоев Т.Х. Ўзбек тилида ёрдамчи сўзлар конверсияси: Филол. фан. ном. ... диссер. автореф. – Тошкент, 1996. – Б.8-9.

³² Ким О.М. Транспозиция на уровне частей речи и явления омонимии в современном русском языке. – Ташкент: Фан, 1976. – С.5-6.

³³ Ўзбек тили грамматикаси. Морфология. – Тошкент: Фан, 1976. – I т. – Б. 47.

³⁴ Қаранг. Подольская Н.В. Словарь русской ономастической терминологии. – М.: Наука, 1988. – С. 91.

³⁵ Суперанская А.В. Структура имени собственного. Фонология и морфология. – М.: Наука, 1969. – С.92-93.

³⁶ Бегматов Э., Улуков Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган, 2006. – Б. 61.

³⁷ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2020. – 2-ж. – Б.153.

muvofiq. Demak, *transonimizatsiya* – biror tip atoqli otning boshqa tip atoqli otga o‘tishi³⁸.

Onomastik makro va mikroko‘lamlarning barchasida konversiya kuzatiladi. Shu nuqtayi nazardan onomastik konversiyaning antronimlashuv (antroponimizatsiya), toponimlashuv (toponimizatsiya), etnonimlashuv (etnonimizatsiya), fitonimlashuv (fitonimizatsiya), zoonimlashuv (zoonimizatsiya) kabi turlari mavjud.

Toponimlar yasalişida *toponimik konversiya*, ya’ni *toponimlashuv (toponimizatsiya)*³⁹ faol qo‘llanadi. Toponimik konversiya asosida yasalgan toponimlar ikki turli bo‘ladi:

1. Tub asosdan hosil qilingan sodda toponimlar: *Sohil, Bog‘* (Yangi. t.), *Istiqlol, Guzar* (Chust t.), *Yog‘du* (Uch. t.), *Dasht* (To‘ra. t.) kabi.

2. Yasama so‘zlardan hosil qilingan sodda toponimlar: *Shifokor* (Uychi t.), *Sohibkor* (To‘ra. t.), *Do‘stlik* (Nor. t.), *Yoshlik* (Kos. t.), *Nurchi* (Nam. sh.) kabi.

Toponimiyadagi konversiya usuli bilan affiksatsiya usulidagi yasalişni aralashtirish ko‘p hollarda toponimlarning motivlarini noto‘g‘ri talqin qilishga olib keladi⁴⁰. Z.Do‘simov ta’kidlab ko‘rsatganidek, onomastik konversiya usulida toponim hosil qilinganda, leksema o‘z vazifasini, sintaktik qurshovini o‘zgartirish bilan birga, o‘z paradigmasini ham o‘zgartiradi. Toponimlarning hosil bo‘lishini belgilashda mazkur jihatlarni e’tiborga olish, ayni paytda ularning morfologik tuzilishini belgilashda ham muhim ahamiyatga egadir.

Toponimiyadagi konversiya usuli bilan affiksatsiya usulidagi yasalişni aralashtirish ko‘p hollarda toponimlarning motivlarini noto‘g‘ri talqin qilishga olib keladi. Bu holatni turkologiyadagi, jumladan, o‘zbek tilshunosligidagi toponimlar tadqiqiga oid ishlarda ham kuzatish mumkin. M., *Qo‘g‘ali, Axtachi, Ko‘nchilik* kabi toponimlar tarkibidagi *-li, -chi, -chilik* formantlari toponim yasovchilar emas, chunki bu affikslar toponimlar tarkibiga mazkur so‘z toponimik nomga aylanmasdan oldin qo‘shilgan. Demak, ushbu nomlar ayrim ishlarda qayd etilganidek, affiksatsiya usulida emas, *onomastik konversiya usulida* yasalgan⁴¹.

Ot apellyativlar konversiyasi asosida yasalgan toponimlarning leksik-semantik xususiyatlari. O‘zbek tilida toponimik konveriya, asosan, ot, sifat, fe‘l kabi apellyativlar asosida yuzaga keladi.

Ot apellyativlar atoqli otlar o‘zaro farqlansa-da, bir turkumga mansubligi nuqtayi nazaridan bir-biriga ancha yaqin. Shu jihatdan boshqa tillardagi kabi o‘zbek tilida ham ot apellyativlarning toponimlashuvi faol.

O‘zbek tilidagi ot apellyativlar konversiyasi asosida yuzaga kelgan toponimlarni lug‘aviy asosi va nominatsion-motivatsion xususiyatiga ko‘ra quyidagicha guruhlash mumkin:

1. Aholining ijtimoiy hayoti motivatsiyasi asosida konversiya usulida yasalgan toponimlar. Bunday toponimlar aholining kasbi-kori, hunari, kundalik mashg‘uloti, ijtimoiy tabaqalanishi motivlari asosida yuzaga kelgan. Shu jihatdan

³⁸ Улуков Н. Ўзбек тили гидронимларининг тарихий-лосоний тадкики: Филол. фан. док. ... диссер. – Тошкент, 2010. – Б.205.

³⁹ Қаранг. Дўсимов З. Хоразм топонимлари. – Тошкент: Фан, 1985. – Б. 41.

⁴⁰ Улуков Н. Ўзбек тили гидронимларининг тарихий-лосоний тадкики: Филол. фан. д-ри. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2010 – Б. 204.

⁴¹ Суперанская А.В. Структура имени собственного. Фонология и морфология. – М.: Наука, 1969. – С. 92-93.

mazkur turga mansub toponimlarni lugʻaviy asosiga koʻra quyidagicha tasniflash mumkin:

a) kasb-hunar ifodalovchi ot apellyativlar konversiyasi asosida yuzaga kelgan toponimlar: *Koʻzagarlik* (Nam. sh.), *Chitgar* (Kos. t.), *Sohibkor* (Nor. t., Chor. t.), *Etikdoʻz*, *Doʻzanda* (Chust t.), *Beshikchi* (Chor. t. Mustaqillik MFY) kabi. Bunday nomlar M.Muhammadaliev tomonidan oʻrganilgan⁴².

c) mansab, unvon ifodalovchi ot apellyativlar konversiyasi asosida yuzaga kelgan toponimlar: *Qozi* (Pop t. Istiqlol MFY); *Sarkarda* (Pop t. Qandigʻon MFY); *Navkar* (Nam. sh. Obod MFY) kabi.

2. Oʻsimlik, yaʼni gul va daraxt nomlarini ifodalovchi lugʻaviy birliklar konversiyasi asosida yuzaga kelgan toponimlar:

a) gullarni ifodalovchi apellyativlar konversiyasi asosida yuzaga kelgan toponimlar: *Binafsha* (Nam. sh. Navroʻz MFY); *Boychechak* (Nam. sh. Axsikent MFY); *Lola* (Nam. sh. MFY) kabi;

b) oʻsimliklarni ifodalovchi apellyativlar konversiyasi asosida yuzaga kelgan toponimlar: *Rayhon* (Uychi t. Toshloq MFY); *Sadarayhon* (Nam. sh. MFY) kabi;

v) daraxtlarni ifodalovchi apellyativlar konversiyasi asosida yuzaga kelgan toponimlar. Bunday toponimlar oʻz ichida ikki guruhga ajratiladi:

– mevali daraxtlarni ifodalovchi apellyativlar konversiyasi asosida yuzaga kelgan toponimlar: *Bodom* (Kos. t. Jar MFY); *Shaftoli* (Uychi t. Boʻston MFY); *Olmurut* (Uychi t.); *Qoratut* (Nam. sh. Sharshara MFY) kabi;

– mevasiz daraxtlar ifodalovchi apellyativlar konversiyasi asosida yuzaga kelgan toponimlar: *Chinor* (Uch. t. Madaniyat MFY); *Majnuntol* (Kos. t. MFY) kabi. Shuningdek, gul va daraxtlarning qismini ifodalovchi apellyativlar konversiyasi asosida yasalgan toponimlar ham bor: *Gʻuncha* (Nam. sh. MFY; Nam. t. Guldirov MFY) kabi.

3. Biror bir inshoot yoki maskanni ifodalovchi otlar konversiyasi asosida yuzaga kelgan toponimlar: *Bozor* (Uychi t. Doʻstlik MFY), *Madrasa* (Chust t. Qalʼapoyon MFY); *Maktab* (Yangi. t. Radivon MFY) kabi.

Inshoot va maskan ifodalovchi apellyativlar konversiyasi asosida yuzaga kelgan toponimlarni davriy jihatdan ikki turga ajratish mumkin:

a) qadimiy inshootlarni ifodalovchi apellyativlar konversiyasi asosida yuzaga kelgan toponimlar: *Minora* (Nam. sh. Nurobod MFY); *Oʻrda* (Pop t. Obod MFY); *Saroy* (Uychi t. Gumbaz MFY); *Qalʼa* (Kos. t. Abdurahmon Jomiy MFY) kabi;

b) zamonaviy inshootlarni ifodalovchi apellyativlar konversiyasi asosida yuzaga kelgan toponimlar: *Ferma* (Uch. t. Norin MFY); *Zavod* (Chor. t. Turkiston MFY); *Vokzal* (Norin t. Quyiltepa MFY); *Stadion* (Ming. t. Momoxon MFY) kabi.

4. Oʻrin-joyini ifodalovchi apellyativlar konversiyasi asosida yuzaga kelgan toponimlar: *Vatan* (Pop t.); *Vodiy* (Yangi. t., Pop t., Koson t., Nam.t.) kabi.

5. Suv obyekti va inshootlarini ifodalovchi otlar konversiyasi asosida yuzaga kelgan toponimlar: *Charxpalak* (Nam. sh. Mustaqillikning besh yilligi MFY); *Nasos* (Nam. sh. Xalqlar doʻstligi MFY); *Favvora* (Chor. t. Baynalminal MFY), *Anhor* (Nam. sh. Diyor MFY; Pop t. MFY); *Sohil* (Nam. sh. MFY) kabi.

⁴² Мухаммадалиева М.Н. Ўзбек тилидаги касб-хунар номларининг лексик-семантик ва деривацион хусусиятлари: Филол. фан. бўйича фалсафа док. ... диссер. – Фарғона, 2020. – Б.85-87.

6. Osmon jismlarini ifodalovchi otlar konversiyasi asosida yuzaga kelgan toponimlar: *Hilol* (Nam. sh. Yuksalish MFY); *Yulduz* (Chust t. Bofanda MFY); *Shafaq* (Nam. sh. Axsikent MFY); *Samo* (Chor. t. Bodomzor MFY) kabi.

7. Mavsum nomlarini ifodalovchi otlar konversiyasi asosida yuzaga kelgan toponimlar: *Bahor* (Uychi t. Xizirobod MFY), *Ko'klam* (Koson t. Movorounnahr MFY); *Navbahor* (Koson t. MFY) kabi.

8. Tomon va yo'nalish ma'nolarini ifodalovchi otlar konversiyasi asosida yuzaga kelgan toponimlar: *Sharq* (Chust t. Kamarsada MFY, Zarafshon MFY; Norin t. Do'mar MFY); *Markaz* (Pop t. Tepa. MFY) kabi.

9. Qush nomlarini ifodalovchi otlar konversiyasi asosida yuzaga kelgan toponimlar: *Qaldirg'och* (Pop t. Qandig'on MFY); *Zarg'aldoq* (Pop t. Bog'ko'cha MFY) kabi.

10. Tosh va metall buyumlarni ifodalovchi otlar konversiyasi asosida yuzaga kelgan toponimlar: *Billur* (Norin t. Uchtepa MFY); *Feruz* (Nam. sh. Yangiyo'l MFY); *Javohir* (Nam. sh. Bahor MFY); *Marjon* (Nam. sh. Nurobod MFY) kabi.

11. Hurlik, ozodlik semalarini ifodalovchi otlar konversiyasi asosida yuzaga kelgan toponimlar: *G'alaba* (Ming. t. Damko'l MFY); *Hurlik* (Pop t. Xo'jaobod MFY); *Hurriyat* (Chor. t. Nurafshon MFY), *Istiqol* (Pop t. Iskovut MFY) kabi.

12. Narsa-buyumni ifodalovchi otlar konversiyasi asosida yuzaga kelgan toponimlar: *Atlas* (Nam. t. Nurtepa MFY); *Ko'zgu* (Nam. sh. Istiqbol MFY); *Xalta* (Uychi t. Churtuk MFY); *Xumdon* (Nam. sh. Sohikkor MFY) kabi.

13. Birlilik, ahillik semalarni ifodalovchi otlar konversiyasi asosida yuzaga kelgan toponimlar: *Ahillik* (Chor. t. Komillik MFY); *Birlilik* (Chust t. Yangiobod MFY; Uch. t. Yopisxon MFY); *Do'stlik* (Pop t. Bunyodkor MFY) kabi.

14. Baxt, shodlik semalarini ifodalovchi otlar konversiyasi asosida yuzaga kelgan toponimlar: *Baxt* (Yangi. t. Ko'kyor MFY); *Iqbol* (Uch. t. Ko'prik boshi MFY); *Quvonch* (Chor. t. Saroy MFY); *Saodat* (Yangi. t. Beshbuloq MFY) kabi.

15. Ilm, ma'rifat semalarni ifodalovchi otlar konversiyasi asosida yuzaga kelgan toponimlar: *Bilim* (Nam. sh. Zarkent MFY); *Idrok* (Chor. t. Zargar MFY); *Ma'rifat* (Chor. t. Alixon MFY) kabi.

Sifat va fe'l apellyativlardan konversiyasi usulida yasalgan toponimlar.

O'zbek tili toponimiyasida sodda tub va yasama sifatlardan konversiya usulida toponimlar yasalishi kuzatiladi. M., *Qayirma* (ariq – Chortoq t., Beshtol q.), *Qaytarma* (ariq – Chust t., G'ova q.) kabi.

Sifat apellyativlardan hosil bo'lgan toponimlarni leksik-semantik jihatdan quyidagicha guruhlash mumkin:

a) tozalik, soflik, ozodalik manolarini ifodalovchi so'zlar lug'aviy asos bo'lgan joy nomlari: *Obodon* (To'ra. t. MFY), *Ozoda* (Chor. t. Qoramurt MFY);

b) go'zallik, nafasat ma'nolarini ifodalovchi so'zlar lug'aviy asos bo'lgan joy nomlari: *Go'zal* (Nam. sh. MFY), *So'lim* (Chust t. Yuqori MFY), *Ko'rkam* (Uychi t. Istiqbol MFY), *Xushmanzara* (Nam. sh. Shishaki MFY);

c) tinchlik, osoyishtalik ma'nolarini ifodalovchi so'zlar lug'aviy asos bo'lgan joy nomlari: *Faravon* (Ming. t. MFY), *Sokin* (Uychi t. Mirzaravot MFY), *Osuda* (Pop t. Pillakash MFY);

d) yorug'lik, nurafshonlik ma'nolarini ifodalovchi so'zlar lug'aviy asos bo'lgan joy nomlari: *Charog'on* (Chust t. Serob MFY), *Nurli* (Chor. t. Mustaqillik MFY), *Oydin* (Nam. sh., G'uncha MFY), *Nurafshon* (Kos. t. Majnuntol MFY);

e) fidokorlik, mardlik, ilmlilik xislatlarini ifodalovchi sifatlar lugʻaviy asos boʻlgan joy nomlari: *Fidoi* (Nam. sh. Olvalizor MFY), *Zarbdor* (Nam. sh. Ilgʻor MFY), *Fidokor* (Chust t. Kamarsada MFY), *Ilgʻor* (Pop t. Uygʻur MFY) kabi;

f) joyning reylefi, yaʼni joylashish oʻrniga bogʻliq hajm-oʻlchovni bildiruvchi sifatlar lugʻaviy asos boʻlgan joy nomlari: *Markaziy* (Toʻra.t. Chorbogʻ MFY), *Uzun* (Toʻra. t. Shohidon MFY), *Yumaloq* (Koson t. MFY), *Yandama* (Nam. sh. Yuqori Gʻirvon MFY), *Ingichka* (Ming. t. MFY) kabi;

g) suvning taʼmini ifodalovchi sifatlar lugʻaviy asos boʻlgan joy nomlari: *Shirin* (Ming. t. Qolgandaryo MFY), *Shoʻrli* (Chor. t. Oyqiron MFY), *Shoʻrxoh* (Kos. t. Majnuntol MFY) kabi.

Feʼlining sifatdosh va harakat nomi funkcionl shakllaridan konversiya usulida toponimlar hosil qilish faol. M., Birlashgan (Pop t. MFY), *Ergashgan* (Nam. t. Guzar MFY) kabi. Aynan *-ish* affiksi vositasida hosil qilingan harakat nomi shakllari aholi ijtimoiy-madaniy hayotida keskin oʻzgarish, burrelish, yangillanish, rivojlanish boʻlganligini ifodalash va orzu qilish, istash motivlari asosida konversiya usulida toponimga, xususan, oykonimga oʻtadi: *Oʻzgarish* (Ming. t. MFY), *Tiklanish* (Pop t. Ittifoq MFY), *Ulgʻayish* (Nam. t. Farovon MFY), *Yangilanish* (Ming. t. Mulkobod MFY), *Yuksalish* (Kos. t. Gulobod MFY) kabi.

Dissertatsiyaning “**Oʻzbek tili toponimiyasida tranonimizatsiya**” nomli 3-bobi 5 boʻlimdan iborat boʻlib, unda transtoponimizatsiyaning turlari, yuzaga kelish omillari dalillar asosida yoritilgan.

Tilning onomastik makro va mikro hamda superkoʻlamlari oʻzaro bogʻliq. Ular yaxlit bir sistemani, yaʼni tilning onomastik tizimini tashkil etadi, uzviy aloqadorlikda yashaydi, ularga xos birliklar biri-ikkinchisiga oʻtadi.

Onomastikada biror tip atoqli otning boshqa tip atoqli otga oʻtishi *tranonimizatsiya* (lot. *trans* – orasidan, ichidan + *onoma* – nom)⁴³ deb ataladi. Tranonimizatsiya “bir toifadagi onimning boshqasiga oʻtishi”⁴⁴. Bunda antroponim, etnonim, zoonim, kosmonim, geortonim va mifonimlar hamda bir toponimdan boshqa toponimlar hosil boʻladi. Oʻzbek onomastikasida tranonimizatsiya asosida yuzaga kelgan nomlar juda koʻp.

V.I.Suprun tranonimizatsiya hodisasini onomastik koʻlam taraqqiyotining koʻrinishi hisoblaydi⁴⁵. Albatta, bu talqinda asos bor. Tranonimizatsiya usulida bir onomastik birlikdan boshqa onomastik birlik hosil boʻladi, shu tarzda nomlar sirasi boyib boradi. Shu jihatdan tranonimizatsiya hodisasini tadqiqotchilar onomastik universalialar qatoriga qoʻshishadi⁴⁶. Tranonimizatsiyani onomastikadagi universalizmni yaratuvchi va taʼminlovchi nutqiy-lisoniy, sotsial-ijtimoiy, tarixiy-maʼnaviy hodisa, deb hisoblaydilar⁴⁷.

Tranonimizatsiya amal qilish doirasiga koʻra ikki turli boʻladi:

Tashqi tranonimizatsiya makro va mikro onomastik koʻlamlar doirasida amal qiladi. Bunda maʼlum onomastik makro va mikrokoʻlam birliklaridan boshqa

⁴³ Бегматов Э., Улуков Н. Ўша луғат, 84-б.

⁴⁴ Подольская Н.В. Словарь русской ономастической терминологии. – М: Наука, 1988. – С.138.

⁴⁵ Супрун В.И. Ономастическое поле русского языка и его художественно-эстетический потенциал: Дис. ... д-ра филол. наук. – Волгоград: Перемена, 2000. – С.9.

⁴⁶ Яковенко М.В. Трансонимизация как ономастическая универсалия // 2009. – №1(3). – С.6-8.

⁴⁷ Нафасов Т. Қашқадарё қишлоқномаси. – Тошкент: Мухаррир, 2009. – Б.32.

makro yoki mikroko‘lam birliklari hosil qilinadi. M., *Navoiy* (taxallus – antroponimik birlik) > *Navoiy shohko‘chasi* (Nam. sh., godonim – toponimik birlik), *qayqi* (etnonim) > *Qayqi qishlog‘i* (komonim – toponimik birlik), *nayman* (etnonim) > *Nayman* (qishloq nomi > komonim – toponimik birlik) kabi.

Ichki transonimizatsiya muayyan onomastik makroko‘lam doirasidagina amal qiladi. Bunda aynan ma‘lum onomastik makroko‘lamga xos mikroko‘lam birliklari biri ikkinchisiga o‘tadi, biridan boshqasi hosil qilinadi. M., Chortoq tumanining Muchum QFYda bir mahala “*O‘zbekiston*”, shu mahalladagi asosiy ko‘cha ham unga nisbat berib, “*O‘zbekiston*” deb atalgan. Demak, *xoronim* (*O‘zbekiston Respublikasi*)dan *oykonim* (“*O‘zbekiston*” mahallasi), undan *godonim* (“*O‘zbekiston*” ko‘chasi) hosil qilingan.

Transonimizatsiya qanday birliklar negizida hosil bo‘lishi jihatidan quyidagi turlarga bo‘linadi:

1. Transantroponimizatsiya. Antroponimning bir tipdan boshqa tipga, antroponimik yoki boshqa onomastik birlikka o‘tishi. M., *Usmon Nosirov* (ism, familiya – antroponim) > *Usmon Nosir* (taxallus – antroponim), *Zulfiya Isroilova* (ism, familiya – antroponim) > *Zulfiya* (taxallus – antroponim), *Usmon Azimov* (ism, familiya – antroponim) > *Usmon Azim* (taxallus – antroponim), *Oybek* (taxallus) > *Oybek ko‘chasi* (godonim) kabi.

2. Transtoponimizatsiya. Toponimning bir tipdan boshqa tip nomga o‘tishi. Shuningdek, aynan bir turdagi toponimdan boshqa toponim turlari hosil bo‘lishi ham transtoponimizatsiya hisoblanadi. M., *Chortoq shahri* (polisonim) > *Chortoq tumani* (xoronim), *Mustaqillik MFY* (komonim) > *Mustaqillik ko‘chasi* (godonim), *Toshkent shahri* (polisonim) > *Toshkentboy* (antroponim); *Qo‘qon shahri* (polisonim) > *Qo‘qonboy*, *Qo‘qonjon* (antroponim) kabi.

3. Transetnonimizatsiya. Etnonimning bir tipdan boshqa tip nomga o‘tishi. M., *yashiq* (etnonim) > *Yashiq MFY* (oykonim), *qo‘g‘ay* (etnonim) > *Qo‘g‘ay MFY* (oykonim), *qozoq* (etnonim) > *Qozoqboy* (antroponim), *qirg‘iz* (etnonim) > *Qirg‘izboy* (antroponim), *qo‘ng‘irot* (etnonim) > *Qo‘ng‘irotboy* (antroponim) kabi.

4. Transmifonimizatsiya. Mifonimlarning bir tipdan boshqa tip nomga o‘tishi: *Semurg‘* (mifozoonim) > *Semurg‘* (antroponim), *Semurg‘ ko‘chasi* (godonim); *Humo* (mifozoonim) > *Humo ko‘chasi* (godonim), “*Humo*” *sport majmuasi* (ergonim) kabi.

Transtoponimizatsiyaning ham ikki turi mavjud:

1. Tashqi transtoponimizatsiya. 2. Ichki transtoponimizatsiya.

Tashqi transtoponimizatsiyada toponimik makroko‘lam birliklaridan boshqa onomastik birliklar yoki boshqa onomastik birliklardan toponimlar hosil qilinadi. M., *Chortoq shahri* (godonim) > “*Chortoq*” *mineral suv zavodi* (ergonim), “*Chortoq*” *fermer xo‘jaligi* (ergonim); *Namangan shahri* (polisonim) > *Namangan diagnostika markazi* (ergonim), “*Namangan*” *mehmonxonasi* (ergonim) kabi. Toponimiyada tashqi transonimizatsiya natijasida boshqa onomastik birliklardan antropotoponimlar, etnotoponimlar, geortotoponimlar, mifotoponimlar va boshqa toponim turlari hosil bo‘ladi.

Antropotoponimlar. Borliqdagi barcha narsa-buyumlar va voqea-hodisalar, jumladan, har qanday obyektlar inson bilan bog‘liq. Ularning barchasi inson uchun yaratilgan, aksariyatini insonlarning o‘zi yaratgan va barchasi ularga xizmat qiladi. Shu jihatdan joylarni nomlashda inson omili yetakchilik qiladi. Joylarni, ya‘ni

shahar, shaharcha, qishloq va mahallalarni ham inson bunyod etadi hamda o'z ehtiyojidan kelib chiqib ularni nomlaydi.

Antroponimlardan yuzaga kelgan joy nomlari *antropotoponimlar* deb yuritiladi. Toponimlarning bu turi *antroponim (ism, familiya, taxallus, laqab) > toponim (obyekt nomi) = antropotoponim (kishi nomi bilan atalgan obyekt nomi)* modelida hosil bo'ladi.

Kishi nomlari: ism, familiya, otasmi, laqab va taxalluslar – antroponimlarning joy nomlariga aylanishi keng tarqalgan lisoniy hodisadir⁴⁸.

Antropotoponimlarni lug'aviy va nominatsion-motivatsion asosiga ko'ra quyidagicha guruhlash mumkin:

I. Qomusiy allomalarining ismi yoki taxallusi transonimizatsiyasi natijasida yuzaga kelgan toponimlar: *Beruniy* (Uch. t. Yangiyer MFY, Sanoat MFY), *Al-Buxoriy* (Nam. t. Qo'shchinor MFY), *Al-Xorazmiy* (Pop t. Yangi to'da MFY) kabi.

II. Mashhur din allomalari, tariqat peshvolarining ismi yoki taxallusi transonimizatsiyasi natijasida yuzaga kelgan toponimlar. *Najmiddin Kubro* (Nor. t. Uchtepa MFY), *Naqshbandiy* (Uychi t. Namuna MFY; Nam. sh. Mehribonlik MFY), *Mahdumi A'zam* (Nam. vil., Koson t.) kabi.

III. Mashhur sarkardalar, podshohlar, milliy qahramonlar va tarixiy shaxslarning ismi, familiyasi transonimizatsiyasi natijasida yuzaga kelgan toponimlar: *Amir Temur* (Pop t. Marg'izor MFY), *Shiroq* (Pop t. Chortoq MFY), *Jaloliddin Manguberdi* (Pop t. Yakkatut MFY), *Mahmud Tarobiy* (Nam. sh. Dashtbog' MFY) kabi.

IV. Davlat, jamoat arboblarning ismi va familiyasi transonimizatsiyasi natijasida yuzaga kelgan toponimlar: *Akmal Ikramov* (To'ra. t. Turkiston MFY; Uch. t. Madaniyat MFY), *Sharof Rashidov* (Yangi. t. Vodiy MFY) kabi.

V. Yozuvchi, shoirlarning ismi, familiyasi yoki taxallusi transonimizatsiyasi natijasida yuzaga kelgan toponimlar. Bunday toponimlarni o'z ichida yana quyidagicha guruhlash mumkin:

1. O'zbek mumtoz adabiyoti namoyandalarining ismi, familiyasi va taxallusi transonimizatsiyasi natijasida yuzaga kelgan toponimlar: *Alisher Navoiy* (Chust t. Tepaqo'rg'on MFY), *Atoyi* (Pop t. Shayxon MFY), *Boborahim Mashrab* (Chor. t. Istiqlol MFY) kabi.

2. Zamonaviy o'zbek adabiyoti namoyandalarining ismi, familiyasi yoki taxallusi transonimizatsiyasi natijasida yuzaga kelgan toponimlar: *Cho'lpon* (Uch. t. O'ljato'pi MFY), *Abdulla Qodiriy* (Ming. t. Qizilqum MFY), *G'afur G'ulom* (Ming. t. Mulkobod MFY) kabi.

3. Qardosh xalqlar adabiyoti namoyandalarining ismi, familiyasi yoki taxallusi transonimizatsiyasi natijasida yuzaga kelgan toponimlar. Bunday antrotoponimlar qozoq, qirg'iz, turkman, ozarbayjon, tatar kabi turkiy xalqlarning mashhur shoir va yozuvchilarining ismi, familiyasi yoki taxalluslari transonimizatsiyasi mahsulidir: *Abay* (Nam. sh.), *Abdulla To'qay* (Norin t.) kabi.

4. Xorijiy xalqlar adabiyoti namoyandalarining ismi, familiyasi yoki taxallusi transonimizatsiyasi natijasida yuzaga kelgan toponimlar: *Abdurahmon Jomiy* (Chor. t. Baynalimal MFY), *Nizomiy* (Nam. sh. Farovon MFY), *Sadiy She'roziy* (Nam. sh. Dashtbog' MFY), *Fuzuliy* (Chust t. Buloqboshi MFY) kabi.

⁴⁸ Улуков Н. Ўзбек тили гидронимларининг тарихий-лисоний тадқиқи: Филол. фан. док. ... диссер. – Тошкент, 2010. – Б.137.

5. Mashhur o'zbek san'atkorlari: qo'shiqchi, aktyor va rassomlarining ismi, familiyasi yoki taxallusi transonimizatsiyasi natijasida yuzaga kelgan toponimlar: *Kamoliddin Bekzod*, *Yunus Rajabiy* (Nam. sh. Obihayot MFY), *Nabi Rahimov* (Nam. sh. O'rta G'irvon MFY) *Botir Zokirov* (Nam. sh. Axsikent MFY) kabi.

VI. Adabiy timsollar, qahramonlarning ismi, familiyasi yoki laqabi transonimizatsiyasi natijasida yuzaga kelgan toponimlar. Bunday antroponimlar, asosan, xalq dostonlari va mumtoz adabiyot namunalari mashhur timsollari ismidan hosil qilingan: *Alpomish* (Pop t. Hazrati Bobo MFY), *Layli* (Nam. sh. Bahor MFY) kabi.

VII. Urush va mehnat faxriylari ismi, familiyasi transonimizatsiyasi natijasida yuzaga kelgan toponimlar. M., *Sobir Rahimov* (Ming. t., O'rtaqishloq MFY), *Soli Adashev* (Norin t. To'da MFY), *Asadilla Xo'jayev* (Nam. sh. Ozod MFY) kabi.

Etnonimlarning toponimlashuvi (etnotoponimlar). O'zbek tili toponimiyasida transonimizatsiya asosida etnonimlardan toponimlar hosil qilish faol kuzatiladi.

O'zbekiston toponimik areallariga mansub etnotoponimlar va etnogidronimlar keng tadqiqi etilgan va tavsiflangan.

Namangan viloyati etnotoponimlarining lug'aviy asosi, ya'ni qanday etnonim asosida yuzaga kelganligiga ko'ra dastlab ikki guruhga bo'lish mumkin:

1. Mashhur va ma'lum yirik etnoslar nomi asosida shakllangan toponimlar. Bunday nomlarning asosini turli xalq va millat nomlari tashkil etadi: *Qozoq* (Yangi. t., MFY), *Kenagas* (Pop t., MFY), *Tojik* (Nam. sh., Bog' mahalla MFY), *Qoraqalpoq* (Ming. t., MFY) kabi.

2. Turkiy urug' va qabila nomlari asosida shakllangan etnotoponimlar: *Qo'g'ay MFY*, *Qayqi MFY* (Uch. t.), *Uyg'ur* (Pop t.), *Qatag'on* (To'ra. t.) kabi.

Geortoponimlar va mifozootoponimlar. *Geortonim* (yun. *georto* – bayram + *onoma* – atoqli ot) – har qanday bayram, festival, xotira kunlari va mana shu xildagi marosim hamda tadbirlarning atoqli oti⁴⁹. Geortonimlar transonimizatsiyasi asosida geortoponimlar, xususan, mahalla nomlari (oykonimlar), ko'cha nomlari (godonimlar) hosil qilingan.

O'zbek xalqida bayram kunlarida bunyodkorlik ishlari, jumladan, yangi uy qurish, uyga ko'chish kabi ezgu amallar ham bajarilgan. Mazkur bayramlar arafasida bunyod etilgan yangi aholi manzillari transonimizatsiya asosida bayramlarning nomlari bilan *Navro'z mahallasi*, *Mehrjon mahallasi* deb atalgan.

Namangan viloyatida 50 dan ziyod ko'cha *Navro'z*, 130 dan ziyod ko'cha *Mustaqillik*, bir necha MFY *Mustaqillikning besh yilligi* deb atalgan.

Mifootoponimlar. Onomastikada afsonalar, epopeyalar va ertaklarda uchraydigan kishilar, jonzotlar, joy nomlari *mifonim* (yun. *mifog* – afsona, ertak + *onoma* – atoqli ot)lar deb ataladi. Mifonimlarning bir turi mifozoonimlardir. *Mifozoonim* – modiy olamda mavjud bo'lmagan, ammo afsona va rivoyatlarda uchraydigan, odamlar rostdan mavjud deb tasavvur qiladigan hayvon va parrandalarning atoqli oti⁵⁰. Kishilar ezgu niyatlar bilan muayyan obyektlarni ana mifozoonimlar bilan ataganlar. Mifozoonimlar transonimizatsiyasi asosida hosil qilingan mazkur ko'cha nomlari mifozootoponimlardir: *Samandar* (Nam. sh.

⁴⁹ Бегматов Э., Улуков Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган, 2006. – Б.25.

⁵⁰ Бегматов Э., Улуков Н. Ўша луғат, 47-б.

Mingchinor MFY, ko‘cha), *Semurg‘* (Uychi t. Mustaqillik MFY; Koson t.), *Humo* (Nam. sh. Mustaqillikning besh yilligi MFY) kabi.

Bobning **“Ichki transtoponimizatsiya”** nomli 5-bo‘limida bir toponimdan boshqa toponimik birliklar hosil bo‘lishi dalillar asosida yoritilgan.

Tilda ko‘proq oykonimlar (aholi manzillarining atoqli otlari), xususan, polisonimlardan quyidagi toponimik birliklar hosil qilinadi:

1. Oykonimlardan xoronimlar – ma‘muriy-hududiy birlik – viloyat, tuman nomlari hosil qilinadi: *Namangan shahri* (polisonim) > *Namangan viloyati* (xoronim) > *Namangan tumani* (xoronim) > *Yangi Namangan tumani* (xoronim); *Chortoq shahri* (polisonim) > *Chortoq tumani* (xoronim) kabi.

2. Polisonimdan godonimlar hosil bo‘ladi. Godonimlar – shohko‘cha, ko‘cha, torko‘cha, bulvar, xiyobon, suv obyekt qirg‘oqlari, sohillar va boshqalarning atoqli oti⁵¹. Aksariyat godonimlar harakat yo‘nalishi motivatsiyasi asosida polisonimdan transtoponimizatsiya usulida hosil qilingan: *Andijon ko‘chasi*, *Uychi ko‘chasi*, *Axsi ko‘chasi* (Nam. sh.), *Chortoq ko‘chasi* (Uychi t. Mashad q.) kabi.

3. Daha nomlaridan bozor nomlari hosil bo‘ladi: *Sardoba dahasi* > *Sardoba bozori*, *Chorsu dahasi* > *Chorsu bozori*, *Lola dahasi* > *Lola bozori* (Nam.sh.) kabi.

4. Transportlarning qatnov yo‘nalishi nomlari hosil qilinadi: *“Go‘zal”* – *“Chorsu” marshuruti*, *Namangan – Chortoq marshuruti* kabi.

5. Ergonimlar (mehmonxonona, oshxonona, diagnostika markazlari): *“Chorsu” mehmonxonasi*, *Namangan diagnostika markazi*, *“Namangan” mehmonxonasi* (Nam. sh.) kabi.

Oykonimlar mikroko‘lamida mahalla nomlari salmoqli o‘rin tutadi. Markaziy shaharlarda aksariyat mahalla nomlari tarixiy, qo‘shni qadimiy va zamonaviy shaharlar (polisonimlar), respublika va uning tarixiy nomlari (xoronimlar)ni abadiyshlashtirish motivatsiyasi asosida transtoponimizatsiya usulida hosil qilingan: *Ashxabod* (Nam.sh. Sohibkor MFY), *Boku* (Nam.sh. Ilg‘or MFY), *Movoraunnahr* (ko‘cha, Koson t., Pop t.), *Nukus* (Nam. sh. Nurobod MFY), *Samarqand* (ko‘cha, Ming. t. O‘zgarish MFY; Chor. t. Bodomzor MFY) kabi.

Bir toponimning boshqa obyekt nomiga o‘tish omillari juda keng:

1. Muayyan iqtisodiy, ijtimoiy, tabiiy sabablar bilan aholining boshqa yerga ko‘chishi natijasida.

2. Bir obyektning nomlashda ikkinchi bir obyektga nisbat berilishi sababli.

3. Makro va mikro toponimlar guruhining, ya‘ni ko‘cha, daha, guzar nomlarining shahar, qishloq, mahalla nomlari bilan bog‘liqligi, aloqadorligi.

Aholining yoppasiga ommaviy migratsiyasi tufayli bir qishloq nomining bir tuman yoki boshqa tuman hududida takroran paydo bo‘lishiga imkon yaratadi. M., *Axsi* – To‘raqo‘rg‘on, Uychi tumanlaridagi shaharcha. Tarixiy dalillarga asosan, To‘raqo‘rg‘on tumanidagi shaharcha avval bunyod bo‘lgan. 1620-yilda Axsikentda yuz bergan zilziladan keyin xarobaga aylangan shahar aholisi hozirgi Uychi tumaniga ko‘chib borgan⁵². Shu boisdan bu qishloq ham aholining avvalgi yashash manziliga nisbat berib, *Axsi* deb atalgani kabi.

⁵¹ Қаранг. Бегматов Э., Улуқов Н. Ўша луғат, 26-б

⁵² Жаббор, Абдулла. Наманган вилояти. – Наманган: “Наманган” нашриёти, 2011. – Б.67-68.

Muqaddas deb hisoblanuvchi narsa, obyekt va shaxslarning atoqli oti agionimlar; mozorlar, qabristonlar va shu tipdagi muqaddas qadamjoylarning atoqli nomlari nekronimlardir⁵³. Ulardan hosil bo'lgan aholi manzillarining nomlari *agiooykonimlar*, *nekrooykonimlar* deb yuritiladi: *Bibiona* (Chust t.), *Daxiyaota // Daxyaota* (Uychi t.), *Langarbobo* (To'ra.t.), *Shomozor* (Pop t.) kabi.

Gidrooykonimlar ham transtoponimizatsiya asosida hosil qilinadi. **Gidrooykonimlar** – gidronimlar asosida yuzaga kelgan aholi manzillarining nomlari. Bunday nomlarning asosiy qismi gidrokomonimlar (qishloq, shaharcha nomlari)dir⁵⁴. Namangan viloyati gidrokomonimlari 50 dan ziyod, ular N.Uluqov tomonidan keng o'rganilgan⁵⁵. *M.*, *Sho'rbuloq* (Chust, Chor.t.), *Katta Toshbuloq*, *Kichik Toshbuloq* (Nam. t.). *Uyg'ursoy* (Pop t.), *Jabborsoy* (Pop t.), *Rezaksoy* (Chust t.), *Damko'l* (Ming. t.), *Shaldirama* (Uychi t.), *Qizariq* (Yangi. t.) kabi. Mazkur gidrokomonimlarning har biri o'ziga xos lisoniy xususiyatlarga ega.

XULOSA

1. Onomastik birliklar, jumladan, toponimlar apellyativlardan leksik-semantik, funksional, uslubiy va yasalish jihatidan farqlanadi. Toponimik birliklar va apellyativ leksika derivatsion jihatdan yasalish asosi, usul va modellaridagi o'ziga xosliklar bilantavsiflanadi.

2. Onomastik birliklarning boshqa turlari kabi toponimlar derivatsiyasida yasalish va hosil qilish hodisalari amal qiladi. Toponimlar ham tilning apellyativ leksikasi, yasovchi vositalari va yasalish usullari negizida yasaladi hamda hosil qilinadi. Toponimlar, asosan, affiksatsiya, konversiya va kompozitsiya usullari bilan yasaladi.

3. Toponimlarga xos tarixiy va zamonaviy yasalishni farqlash lozim. Tarixan toponimlar yasalishida affiksatsiya usuli faol qo'llangan, hozirda nafaol, deyarli qo'llanmaydi.

4. Til taraqqiyoti davomida apellyativlardan konversiya va boshqa onomastik birliklardan transtoponimizatsiya usulida toponimlar hosil qilish faollashgan. Bu falsafiy jihatdan tilning sistemaligi, barcha til birliklarning, jumladan, apellyativlarning atoqli otlar bilan, barcha atoqli otlar (onomastik birliklar) o'zaro bog'liqligi, yangi nom yasashdan ko'ra tayyor birliklardan yangi nomlar hosil qilish yengilligi, toponimlar derivatsiyasida tildagi barcha vositalardan foydalanilmasligi, toponimlarni yasalishiga asos bo'luvchi lug'aviy birliklar va yasovchi vositalar cheklanganligi bilan izohlanadi.

5. Apellyativlardan hech qanday grammatik vositalarsiz atoqli otlar yasalishi onomastik konversiya deb ataladi. Onomastik konversiya *toponimlashuv* (toponimizatsiya), *antroponimlashuv* (antroponimizatsiya), *etnonimlashuv* (etnonimizatsiya), *fitonimlashuv* (fitonimizatsiya) kabi turlarga bo'linadi. Toponimlar makroko'lamida bu usuli faol qo'llanadi.

6. Onomastik konversiyaning toponimlashuv usulida, asosan, ot, qisman, sifat, kamroq darajada, fe'l turkumiga mansub apellyativlardan joy nomlari yasaladi, ya'ni ma'lum motivlar asosida oddiy so'zlar muayyan obyektning atoqli

⁵³ Бегматов Э., Улуков Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган, 2006. – Б.11.

⁵⁴ Улуков Н. Юкорида кўрсатилган асар, 233-бет.

⁵⁵ Каранг. Улуков Н. Шимолий Фарғона гидротопонимлари // Ўзбек филологиясининг долзарб масалалари: Республика илмий-назарий анжумани материаллари. – Наманган, 2006. – Б.231-235.

nomi – toponimga lugʻaviy asos boʻladi. Toponimga aylangan apellyativda funksional, leksik-semantik, grammatik, grafik oʻzgarishlar yuz beradi.

7. Transonimizatsiya biror tip atoqli otning boshqa tip atoqli otga oʻtishi boʻlib, uning natijasida tayyor bir nomdan boshqa yangi nom, yaʼni bir onomastik birlikdan boshqa onomastik birlik hosil qilinadi.

Transonimizatsiya funksional-semantik jihatdan ikki turli boʻladi:

Tashqi transtoponimizatsiya jarayonida antroponim (kishi ismi, laqab, taxallus) > toponim (viloyat, tuman, shahar, qishloq, mahalla, va koʻcha nomlari), etnonim (millat, urugʻ, qabila nomi) > toponim (qishloq, mahalla, koʻcha nomlari), zoonim (hayvon, parranda nomlari) > toponim (mahalla, koʻcha nomlari), geortonim (bayram, maʼnaviy-maʼrifiy tadbir nomlari) > toponim (mahalla, koʻcha nomlari) modellarida yuz beradi va buning natijasida antroponimlar, etnotoponimlar, zootoponimlar, geortoponimlar, kosmonotoponimlar kabi yangi toponimik birliklar hosil qilinadi.

Ichki transtoponimizatsiya natijasida bir toponimdan boshqa toponim hosil qilinadi, bu gidronim (suv obyektini nomlari) > oykonim (aholi manzillarining nomi), nekronim (qabriston, mozor nomi) > oykonim (aholi manzillarining nomi), oykonim (aholi manzillarining nomi) > xoronim (viloyat, tuman nomlari), oykonim (aholi manzillarining nomi) > godonim (koʻcha, shohkoʻcha nomi), oykonim (aholi manzillarining nomi) > dromonim (yoʻllar nomi) va boshqa modellarda yuz beradi. Buning natijasida gidrooykonim, nekrooykonim, topogidronim kabi toponim turlari hosil boʻladi.

8. Transonimizatsiya natijasida hosil qilingan toponimik birliklar *antropotoponimlar, etnotoponimlar, mifonimlar, kosmotoponimlar* tarzida nomlanadi. Bunday toponimik birliklar muayyan obyektini nomlash (nominativ vazifa), boshqasidan farqlash (difrensiasiyalash vazifasi) dan tashqari maʼlum shaxslar ismi va familiyasini abadiylashtirish, etnik nom (etnonimlar)ning saqlanishini, tilda yashashini taʼminlash, avlodlardan avlodlarga yetkazish kabi milliy-madaniy vazifalarni ham bajaradi. Shu jihatdan toponimlashuv mahsuli boʻlgan antropotoponimlar, etnotoponimlar, mifotoponimlar lingomadaniy hamda sotsiolingvistik mohiyat kasb etadi.

9. Tilning onomastik, xususan, toponimik tizimiga xos transonimizatsiya hodisasining yuzaga kelishi va qoʻllanishi faolligini yangi onomastik birlik yaratish, yasashdan koʻra tayyor birliklardan boshqa birliklarni hosil qilish oson va yengilligi, onomastik birliklarning oʻzaro bogʻliqligi, aloqadorligi motivlari bilan izohlash mumkin.

10. Tilning sistemaviy tabiatidan kelib chiqib, onomastik tizimda toponimlar makrokoʻlam ham yaxlitligi bilan tavsiflanadi. Sistemaviylik mohiyatiga koʻra tilning toponimlar makrokoʻlamiga mansub mikrokoʻlamlar oʻzaro biri ikkinchiga bogʻliq tarzda yashaydi, bu oʻz navbatida, toponimik birliklarning birining ikkinchiga oʻtishiga, biridan ikkinchisining hosil boʻlishiga yoʻl ochadi, sabab boʻladi. Shu jarayonda shahar nomidan viloyat, tuman, mahalla, koʻcha nomlari va boshqa toponimik birliklar hosil qilinadi.

**SCIENTIFIC COUNCIL AWARDING SCIENTIFIC DEGREE
PhD.03/04.06.2020.Fil.76.04 AT NAMANGAN STATE UNIVERSITY**

NAMANGAN STATE UNIVERSITY

SATIVOLDIEVA DILDORA SADRIDIN KIZI

**CONVERSION AND TRANSONIMISATION IN THE TOPONIMIC
SYSTEM OF THE UZBEK LANGUAGE**

10.00.01 – Uzbek language

ABSTRACT

of dissertation of doctor of philosophy (PhD) on PHILOLOGICAL SCIENCES

Namangan – 2024

The topic of the doctor of philosophy dissertation in philological sciences (PhD) is registered with the Higher Attestation Commission under the number B2021.1.PhD/Fil11555.

The dissertation was completed at Namangan State University.

The abstract of the PhD dissertation is posted in three (Uzbek, English, Russian (Resume) languages on the website of the Scientific Council (www.namdu.uz) and on the website «ZiyoNet» Information-educational portal (www.ziynet.uz).

Scientific supervisor:

Uluqov Nosirjon Muhammadalievich
Doctor of Philological Sciences, Professor

Official opponents:

Khojaliev Ismoil Tojiboyevich
Candidate of Philological Sciences, Associate Professor

Turobov Abdurayim Malikovich
Doctor of Philological Sciences, Professor

Leading organization:

Kokand State Pedagogical Institute

The defense of the dissertation will be held at the meeting of the Scientific Council No.PhD.03/04.06.2020.Fil.76.04 at Namangan State University in 2024 at 28.08 at 9⁰⁰. (Address: 161, Baburshah street, Namangan city, 160119. Tel.: (+99869) 227-06-12; Tel.: (998-69) 228-85-01, Fax: 228-85-02. Web-site: www.namdu.uz, e-mail: info@namdu.uz, fax: (+99869) 227-07-61; e-mail: info@namdu.uz.)

The dissertation is available at the Information-resource centre of Namangan state university (registered by 1478). (Address: 161, Boburshoh street, 160119, Namangan city. Tel.: (+99869) 228-85-01; fax: (+99869)228-85-02; e-mail: info@namdu.uz.)

The abstract of the dissertation was distributed on "15" 08, 2024.
(Register protocol 7 on "15" 08 2024).



Z.Y.Sodikov,
Chairman of the Scientific Council awarding scientific degrees, Doctor of Philological Sciences (DSc), Professor

I.U.Darvishov,
Scientific Secretary of the Scientific Council awarding scientific degrees, Doctor of Philosophy on Philological Sciences (PhD), Associate Professor

F.I.Karimova,
Chairman of the Scientific Seminar under the Scientific Council awarding scientific degrees, Doctor of Philological Sciences (DSc), Associate Professor

INTRODUCTION (annotation of the Doctor of Philosophy (PhD) dissertation)

Actuality and relevance of the theme of the dissertation. The integration of linguistics with other disciplines is evident in the field of onomastics of world linguistics. As a result, it is important to study the special names of geographical objects, such as country, region, district, city, town, village, river, stream, spring, which have a special essence for subjects such as geography, history, ethnography, and archeology, in historical and modern aspects. practical importance is rising to a higher level. In this regard, toponymic units are specially collected through large-scale researches and projects of applied linguistics, and their functional, lexical-semantic, etymological, nominative-motivational, derivational, structural-typological, linguistic features are analyzed from the practical side based on various linguistic paradigms and aspects and the principles of interdisciplinary integration. Linguistic research of the actual use of toponymic units in this period has its importance and relevance.

In world linguistics, the field of toponymy is considered as a scientifically and theoretically developed and perfected scientific direction. At present, the scope of research in the fields of scientific onomastic schools of the world is expanding and improving. Especially today, world toponymy is enriched and changed in terms of meaning and form under the influence of socio-political, economic, natural-geographical, cultural and other factors. That is why the research of all linguistic aspects of toponymic units, including the ways of their formation from the point of view of modern linguistics aspects, is one of the urgent tasks of the important agenda.

Although toponymy has achieved certain achievements and results in Uzbek linguistics and is a branch of onomastics with established scientific schools, the formation and structural-typological aspects of the macroscope of toponyms have not been studied in a monographic aspect, and no scientific-theoretical conclusions have been made regarding the development of toponymic units. “In today's era of globalization, it is natural for each independent country to attach priority to the issue of ensuring its national interest, in this regard, preserving and developing its culture, ancient values, and native language”¹. In this regard, revealing the characteristics of formation and structure of toponyms is one of the important tasks. In the years of independence, as a result of the new toponymic policy of the Uzbek government, reforms in socio-political and cultural life, serious linguistic and non-linguistic changes took place in the toponymy of the Uzbek language. Under the influence of such changes, the process of creation of toponyms continues at the macro level of the language, as well as at the simple appellative lexical level. The derivational, morphological and syntactic study of toponyms is important in the linguistic regulation of the toponymic system of the language. When approaching the issue from this point of view, this dissertation becomes relevant.

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 21 октябрдаги ПФ-5850-сон “Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги фармони // www.lex.uz

The Law of the Republic of Uzbekistan “On the State Language” adopted in a new version on December 21, 1995, the Cabinet of Ministers’ decision of September 10, 1996 on the implementation of the tasks in this document Requirements of Decision No. 311, Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-4797 of May 13, 2016 “On the establishment of Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi” and No. PQ-2789 of February 17, 2017 “On measures to further improve the activities of the Academy of Sciences, organization, management and financing of scientific research” dated June 5, 2018 “Additional measures to improve the quality of education in higher education institutions and ensure their active participation in comprehensive reforms implemented in the country” on events” dated October 21, 2019 “On measures to fundamentally increase the prestige and position of the Uzbek language as a state language”, on October 20, 2020 “On measures to further develop the Uzbek language in our country and improve the language policy”, Decree and decisions No. PQ-289 of June 21, 2022 “On measures to increase the quality of pedagogical education and further develop the activities of higher educational institutions that train pedagogic personnel” and other regulations related to this activity – this research works to a certain extent to fulfill the tasks defined in the legal documents.

